

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?

Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2025-yil 23-aprel chorshanba №16(9549)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'ttiz ikki yildan buyon maktabda dars beraman. Kuzatishlarim asosida shunday xulosaga keldimki, o'qituvchilarni ta'limdan tashqari ishlarga jalb qilish, maqsadsiz yig'ilishlar, maktabga aloqasi bo'lmagan kishilarning ta'lim sifatini yoki hujjatlarni tekshirishi stressga olib keldi. Chunki 20–30 yil ishlagan o'qituvchiga ko'chadan kelgan odam aql o'rgatsa yoki davomatni to'g'rilamabsan, desa u qancha asablarini yo'qotadi.

Zafarbek ABDUSAMIYEV

Ravshan JOMONOV:

Yozuv amaliyotidagi yana bir muammo:

ayrim ruscha
ism-familiyalar
imlosi

Горбачев	Gorbachev [горбачэв]	☒	Gorbachov	☒
Зюганов	Zyuganov [зйу-га-нов]	☒	Zuganov	☒
Журавлев	Juravlev [журавлэв]	☒	Juravlyov	☒
Егор	Egor [эгор]	☒	Yegor	☒

6-7-betlar

G'aybullar BOBOYOR:

O'zbek tili tarixi

qanchalik yoritilgan? 12-13-betlar



Baxtiyor
ABDUSHUKUROV:

Ko'chib kelgan so'zlar

8-9-betlar



Islohot va samara

Bugun pedagoglarga qo'yilgan yagona talab – ta'lim sifatini oshirish! O'qituvchi butun energiyasini o'quvchiga bilim va tarbiya berishga sarflashi lozim.

Sohadagi islohotlar bir-birini to'ldirib bormoqda. Avvallari dars ishlanmalari tayyorlashda bilim, ko'nikma, malaka haqida gapirar edik: "Bilim – o'rgangan ma'lumotlarni eslab qolish. Fan tilida aytadigan bo'lsak, berilgan tilshunoslikka oid qoidalarni yod olish. Masalan, ot so'z turkumi nima? Ot nom bildiruvchi so'z turkumi bo'lib, shaxs, narsa, joy ma'nolarini anglatadi va "kim?", "nima?", "qayer?" so'roqlariga javob bo'ladi (Ona tili. 6-sinf. "Tasvir" nashriyot uyi, Toshkent – 2017, 104-bet). Ko'nikma – o'rgangan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llash, ya'ni ona tili kitoblarida mashqlarda berilgan gaplar ichidan ot so'z turkumini topish va aniqlash. Masalan, "263-mashq. Ot so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlang.

ma, ma'lumotnoma, ishonchnoma, tarjimai hol kabi hujjatlar bilan ishlash, o'z yaqinlariga maktub yozish)da asqatadi. Bu o'quvchi kompetensiyasining yaxshi shakllanganidan dalolat beradi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan uyg'un ta'lim sohasidagi o'zgarishlar ketma-ket yangilanib borayotgan darsliklarimizda ham o'z aksini topmoqda. Eski darsliklarimizda o'quvchining bilim, ko'nikmasini shakllantiruvchi yoki xotirasini sinovchi topshiriqlar berilgan bo'lsa, yangi darsliklar bundan mustasno – berilgan topshiriqlar o'quvchining ongi, o'qish savodxonligini oshirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, ularni hayotning turli sohalari bilan tanishtiradigan, hayotda kishi-

Islohotlar bir-birini to'ldirib bormoqda



1. O'lmasning onasi uyda o'tiradi, do'ppi tikadi. (Ona tili. 6-sinf. "Tasvir" nashriyot uyi, Toshkent – 2017, 105-bet)". Bu gapda O'lmas (kim?, shaxs nomini bildirgan), onasi (kim? shaxs nomini bildirgan), do'ppi (nima? narsa nomini bildirgan) so'zlari – ot so'z turkumi. Demak, bu topshiriq orqali o'rgangan bilimlarni tanish vaziyatda qo'llash ko'nikmasi shakllantirilgan.

Malaka – o'rgangan bilimlarni notanish vaziyatlarda qo'llash. Masalan:

✓ shaxs, narsa, joy nomlarini qatnashtirib matn tuzing;

✓ atoqli otlardan foydalanib, "Vatan" mavzusida matn tuzing va h.k.

Bunday topshiriqlarda o'quvchi o'rgangan bilimlarini amalda sinab ko'rish orqali o'z malakasini oshiradi.

XXI asr boshida ta'lim sohasida asosan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirishga e'tibor berildi. So'nggi 5 yillikda esa ta'lim sohasiga "kompetensiya" tushunchasi kirib keldi. Kompetensiya – (lotincha competens – "layoqatli, qobiliyati bor" ma'nolarini anglatadi) fan bo'yicha egallangan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda qo'llay olishdir. Masalan, o'quvchining ona tili fanidan olgan bilimlari (so'zlarning imlosi – qo'shma, juft, takroriy, kirish so'zlar, undalmalar, atoqli otlarning yozilishi, tinish belgilari)ni hayotda turli vaziyatlar (biror joyga ishgah kirish, ariza, tavsifno-

ga asqatadigan, tafakkurni uyg'otadigan, dunyoqarashni kengaytiradigan topshiriqlar bilan boyitilgan. O'quvchilar bu topshiriqlarni nafaqat bilimini boyitish maqsadida, balki katta qiziqish va xohish bilan bajarmoqda. Jumladan, ijod maktablari uchun 2024-yili chiqarilgan 8-sinf "Ona tili" darsligida "Sangardak qo'shig'i", "Mahallamiz tarixini bilasizmi?", "Xat", "Sundoku", "Muvaffaqiyatli kishilarning odatlari", "Tabiatning ilhomlantiruvchi kuchi", "Matonatli ekofaol", "O'zbekistonda sun'iy intellektning kelajagi qanday?", "Daktiloskopiya tarixi: barmoq izlari qanday kashf qilingan?", "Dunyoning noodatiy maktablari" kabi matnlar yuzasidan berilgan topshiriqlar o'quvchilarni bahs-munozaraga tortishi, darsni jonlantirishi bilan birga ularning grammatik bilimlari, hayotiy saboqlarini kengaytirish, ularni hayotning turli vaziyatlariga tayyorlab borishga xizmat qiladi. Bunday iqtidorli yoshlarning qobiliyatlarini kuzatuvchi yangi baholash tizimi, ya'ni o'quvchi bilimini formativ va summativ baholash tizimi esa o'quvchilar olgan ta'limning sifatini yanada oydin ko'rsatish, ularning mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash, mustaqil ilmiy va tadqiqot ishlarini tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Aziza SAYDULLAYEVA,
Toshkent shahridagi
Abdulla Qodiriy nomidagi ijod
maktabining oliy toifali
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Dolzarb mavzu

O'zbek tili so'nggi yillarda xalqaro miqyosda tobora ommalashib borayotgan tillardan biriga aylandi. Bir necha yil avval asosan Markaziy Osiyo doirasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda AQSH, Turkiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya kabi yirik davlatlar, hatto, Yevropa mamlakatlarida ham o'zbek tilini o'rganish bo'yicha dasturlar yo'lga qo'yilmoqda. Bu jarayonning ortida turli sabablar yotibdi, ularning har biri o'zbek tilining xalqaro maydondagi ahamiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Dastlab geosiyosiy omillarni inobatga oladigan bo'lsak, O'zbekiston bugungi kunda Markaziy Osiyoning iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan mamlakatlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi hisobotlariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti Markaziy Osiyoda eng tez o'sayotgan iqtisodiyotlardan biridir. Ta'biyki, bu jarayon xorijiy sarmoyadorlar, diplomatlar va tadbirkorlarning mamlakatga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Masalan, Janubiy Koreya O'zbekistonda eng yirik investorlardan biri bo'lib, 2023-yil holatiga ko'ra, mamlakatda 1000 dan ortiq koreys kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Ushbu iqtisodiy aloqalar natijasida Seul Milliy universiteti, Hanguk chet tillari universiteti kabi oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kurslari ochildi. Shuningdek, AQSHning Indiana universitetida Markaziy Osiyo tillari dasturi doirasida o'zbek tili muntazam ravishda o'qitiladi.

O'zbek tilining xalqaro maydonda ommalashishiga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil – uning madaniy va tarixiy merosidir. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy kabi buyuk shaxslarning nodir merosi jahon ilmiy jamoatchiligining e'tiborini tortmoqda. Masalan, AQSHning Harvard universitetida Navoiy ijodi bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, Germaniyaning Gettingen universitetida esa Boburning "Boburnoma" asari tahlil qilinmoqda. Jahonning ko'plab mamlakatlarida turkologiya bo'yicha mutaxassislar o'zbek tili va adabiyotini o'rganmoqda.

O'zbek tiliga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi nafaqat ilmiy va iqtisodiy omillar bilan, balki migratsiya va diaspora masalalari bilan ham bog'liq. Bugungi kunda Rossiya, Janubiy Koreya, AQSH va Yevropa davlatlarida o'zbek diasporasi faoliyat yuritmoqda. Faqatgina Rossiyaning o'zida 2 milliondan ortiq o'zbek mehnat muhojirlari yashaydi. Rossiya hukumati mehnat muhojirlarining jamiyatga integratsiyasi jarayonini yengillashtirish maqsadida Moskvadagi RUDN universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti va boshqa yirik OTMlarda o'zbek tili kurslarini tashkil qildi. Bu jarayon Janubiy Koreyada ham kuzatilmoqda. 2021-yili Seul shahrida o'zbek tilini o'qitish bo'yicha markaz ochildi. Bundan tashqari, Hindistonning "Milliy Islomiy Jomia" universitetida ham o'zbek tilini o'qitish dasturlari yo'lga qo'yilgan.

Har bir tilning rivojlanishi turizm sohasi bilan ham bevosita bog'liq. O'zbekiston so'nggi yillarda turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. 2019-yili mamlakatimizga 6,7 million sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2023-yili bu ko'rsatkich 7,5 millionga yetdi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy

shaharlarga tashrif buyurayotgan chet elliklar o'zbek tiliga qiziqish bildirishmoqda. Bu esa, o'z navbatida, gidlar va mahalliy biznes vakillari uchun o'zbek tilini chet elliklarga o'rgatish ehtiyojini oshirmoqda. Shuningdek, savdo, biznes va akademik hamkorlik rivojlanayotgani sari xalqaro maydonda o'zbek tilini bilish zarurati ham ortib bormoqda. Jumladan, so'nggi yillarda yurtimizga turli sohalar bo'yicha xorijiy talabalar kelib, ta'lim olayotganini kuzatishimiz mumkin. Shu sababli, ona tilimiz O'zbekistonning davlat tili sifatida nafaqat mahalliy aholi, balki bu yerda tahsil olayotgan xorijlik talabalar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizning oliy ta'lim tizimi keyingi yillarda jadal rivojlanib, xorijiy talabalar soni ham tobora ortib bormoqda. Xususan, tilshunoslik, tibbiyot, muhandislik, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va boshqa ko'plab yo'nalishlarda xorijlik talabalar tahsil olishga katta qiziqish bildirmoqda. Ayniqsa, tibbiyot oliygohlariga qiziqish yuqori. O'zbekistonning tibbiy ta'lim sohasidagi nufuzli oliy o'quv yurtlari – Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Samarqand, Buxoro va Andijondagi tibbiyot OTMlariga Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Janubiy Koreya, Xitoy kabi xorijiy davlatlar hamda MDH mamlakatlaridan talabalar oqimi yil sayin ko'paymoqda. Xo'sh, ular nega aynan O'zbekistonda tibbiy ta'lim olishni tanlamoqda? Bu jarayonga quyidagicha izoh berish mumkin:

O'zbekistonning geografik va madaniy jihatdan qulay joylashuvi. Xususan, Hindiston, Pokiston va Bangladesh kabi davlatlar hamda MDH mamlakatlari bilan O'zbekiston o'rtasida tarixiy-madaniy aloqalar mavjudligi ham muhim rol o'ynamoqda.

Tibbiy ta'limning yuqori sifati va xalqaro tan olinishi. O'zbekiston tibbiyot oliygohlari jahon miqyosida yaxshi natijalarga erishmoqda, bitiruvchilar xalqaro attestatsiya imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirayotgani bunga misol bo'la oladi.

O'qish narxining nisbatan arzonligi. Ko'plab xorijiy talabalar Yevropa yoki AQSHdagi nufuzli tibbiyot universitetlariga qabul qilinish qiyinligi va o'qish to'lovlari yuqoriligi sababli O'zbekistonni tanlamoqda.

Sun'iy intellekt taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, bir qancha xorijiy tibbiy oliy o'quv yurtlaridagi to'lov kontraktlari miqdori anchagina qimmat ekanini ko'rishimiz mumkin:

AQSHda bu summaning o'rtacha miqdori 50–70 ming dollar ekan. Buni ba'zi tibbiyot o'quv yurtlari misolida ko'rib chiqamiz:

Harvard Medical School: \$66 284

John Hopkins University: \$61 000

Yale School of Medicine: \$64 000



O'ZBEK TILI: GLOBAL MAYDONDAGI YUKSALISH VA EHTIYOJLAR

Endi Yevropa mamlakatlaridagi tibbiyot OTMlarining yillik o'rtacha to'lov summalarini ko'rib chiqamiz:

Buyuk Britaniya: \$50 000 – \$60 000

Germaniya: \$12 000 – \$25 000

Italiya: \$11 000 – \$15 000

Polsha, Vengriya, Chexiya: \$ 7 000 – \$ 15 000

Osiyo mamlakatlarida esa eng arzon va eng qimmat bo'lgan tibbiyot OTMlarining yillik o'qish to'lovlari minimal va maksimal hisobda quyidagicha belgilangan:

Hindiston: \$ 5 000 – \$ 25 000

Xitoy: \$ 5 000 – \$ 15 000

Malayziya: \$ 2 000 – \$ 5 000

Singapur: \$ 18 000 – \$ 70 000

MDH davlatlarida ham bu ko'rsatkich O'zbekistondagi tibbiyot OTMlaridan birmuncha farq qiladi:

Rossiya: \$ 4000 – \$ 9000

Qozog'iston: \$ 3000 – \$ 6000

Qirg'iziston: \$ 2000 – \$ 4500

Ko'rishimiz mumkinki, dunyoning aksariyat mamlakatlarida tibbiy oliy ta'lim to'lovi juda yuqori bo'lib, O'zbekiston bu borada ham sifatli, ham arzon ta'limni taklif qilmoqda. Bu esa tibbiyot oliy o'quv yurtlarimizga xorijlik talabalarining oqimi yanada oshishiga sabab bo'lmoqda.

Biroq xorijlik talabalar uchun O'zbekistonda o'qish jarayoni har doim ham oson kechmaydi. **Eng katta muammolardan biri – davlat tilini o'rganish.** Ko'plab xorijlik talabalar o'zbek tilini yetarlicha o'zlashtira olmagan sababli, garchi ta'lim ingliz/rus tilida olib borilishiga qaramay, o'quv jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ayniqsa, tibbiyot ta'limida til muammosi yanada dolzarb, chunki talabalar o'z bemorlari bilan bevosita muloqot qilishlari talab etiladi. Bemorlar esa, asosan, mahalliy aholi vakillari bo'lib, ular bilan muloqot qilishda davlat tilini bilish bir qancha ustunlik berishi mumkin. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida 2019-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni va unga asoslangan 2020–2030-yillarga mo'ljallangan O'zbek tilini rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra, xorijliklar uchun o'zbek tilini o'qitishni metodik jihatdan takomillash-tirish, maxsus o'quv qo'llanmalari yaratish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish rejalashtirilgan.

Aksariyat xorijlik talabalar o'zbek tilini nafaqat akademik ehtiyojlar, balki kundalik hayotda muloqot qilish, o'quv jarayonida faol ishtirok etish yoki ish bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun o'rganishga harakat qilishadi. Biroq xorijlik talabalar o'rtasida olib borilgan muloqotlar shuni ko'rsatdiki, ular o'zbek tilini o'rganishda qator muammolarga duch kelmoqda. Bular orasida o'quv adabiyotlarining yetarli emasligi, so'zlashuv va grammatika ko'nikmalaridagi

qiyinchiliklar asosiy muammolar sifatida ko'rilmoqda. Ayniqsa, xorijlik talabalarining aksariyati Toshkentda joylashgan OTMlarda tahsil olayotgani sababli Toshkent shevasi bilan adabiy til o'rtasidagi tafovutlar va o'quv dasturlari yetishmasligi tufayli bir qancha qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Xususan, hindistonlik talabalar uchun o'zbek tilini o'rganish yanada murakkab kechmoqda.

Ushbu maqola doirasida biz xorijlik talabalar uchun o'zbek tilini o'rganish jarayonidagi mavjud to'siqlarni tahlil qilib, ularga yechim sifatida qanday takliflar ilgari surish mumkinligi borasida muhokama yuritishni maqsad qildik. Shu sababli, maqola tadqiqi yuzasidan Toshkentdagi xorijlik talabalar o'rtasida ularning lingvistik ehtiyojlarini aniqlash maqsadida “Google Forms” platformasi orqali onlayn so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada filologik va nofilologik yo'nalishlarda tahsil olayotgan 100 ga yaqin xorijlik talabalar ishtirok etdi. Talabalar asosan Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlardan kelgan. Natijalar quyidagi asosiy jihatlarini ko'rsatdi:

1. O'quv adabiyotlarining yetishmovchiligi.

◆ So'rovnomada qatnashgan xorijlik talabalar o'zbek tilini o'rganishda maxsus adabiyotlar yetarli emasligini ta'kidlashdi.

◆ Aksariyat mavjud materiallar grammatikaga yo'naltirilgan bo'lib, muloqot va kasbiy soha uchun maxsus tayyorlangan qo'llanmalar kam.

2. So'zlashuv va grammatikaga oid qiyinchiliklar.

◆ Xorijlik talabalar ko'pincha o'zbek tilining murakkab morfologik va sintaktik tuzilishini tushunishda qiynalmoqda.

◆ Jumladan, fe'l zamonlari, egalik qo'shimchalari va so'z birikmalarini o'zlashtirish eng qiyin jihatlardan biri sifatida qayd etilgan.

3. Toshkent shevasini tushunishdagi muammolar.

◆ O'zbek tilining adabiy shaklini o'rgangan xorijlik talabalar hududiy shevalar, xususan, Toshkent shevasidagi so'z va talaffuz o'zgarishlarini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

◆ Ayniqsa, shahar hayotida, bozor va jamoat joylarida muloqot qilayotganda ular uchun Toshkent shevasini bilish muhim ekani aniqlandi. Shu sababli, xorijlik talabalar Toshkent shevasi bo'yicha maxsus lug'at tayyorlashni taklif qilishdi.

4. Hindistonlik talabalar uchun alohida qiyinchiliklar.

◆ Hindistonlik talabalar uchun o'zbek tilini o'rganish ancha murakkab bo'lib, bunga hind va o'zbek tillarining hech qanday aspekti bir-biriga yaqin emasligi sabab qilib ko'rsatilmoqda. Harflar, talaffuz, grammatika, jumla tuzilishi butunlay farqlanadi.

◆ Shu sababli, ular uchun maxsus moslashtirilgan darslik va metodika ishlab chiqish zarur.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

◆ *O'quv adabiyotlarini rivojlantirish.* Xorijlik talabalar uchun maxsus o'quv materiallari, so'zlashuv qo'llanmalari va kasbiy tilda muloqotni osonlashtiruvchi darsliklar ishlab chiqilishi lozim.

◆ *Interaktiv va kommunikativ yondashuvlar.* Til o'rgatishda jonli suhbat, roliklar, audiomatnlar va rolli o'yinlardan foydalanish kerak.

◆ *Toshkent shevasi bo'yicha lug'at yaratish.* Toshkent shevasidagi asosiy iboralar va so'zlarni o'z ichiga olgan maxsus lug'at tuzish, ayniqsa, Toshkentdagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar uchun foydali bo'ladi.

◆ *Hindistonlik talabalar uchun maxsus kurslar.* Hindlarga o'zbek tilini o'rgatuvchi qo'shimcha manbalar tayyorlanishi lozim.

Shuningdek, O'zbekiston OTMlarida, xususan, Toshkent tibbiyot akademiyasida xorijlik talabalar uchun ajratilgan o'zbek tili dars soatlari qayta ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq. 30 soatlik (15 juftlik) o'quv mashg'ulotlari xorijlik talabalar uchun yetarli bo'lmay, ularning muloqot qobiliyatini shakllantirishga imkon bermaydi. Shu sababli xorijlik talabalar uchun o'zbek tili darslarini kamida 60–90 soatgacha oshirish, ayniqsa, tibbiyot yo'nalishidagi talabalar uchun kasbiy terminologiyani o'z ichiga olgan maxsus kurslarni tashkil qilish lozim.

Shu o'rinda o'zbek tilini xorijliklarga o'rgatish borasida bir qator sifatli o'quv platformalarining yaratilganini ham e'tirof etish o'rinlidir. Masalan, Yoshlar ishlari agentligining “Ibrat farzandlari” onlayn videoplatformasi xorijlik va mahalliy yoshlar uchun til o'rganishda katta imkoniyat yaratmoqda. Shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetida tashkil etilgan “O'zbek maktabi” xorijliklar uchun maxsus o'quv dasturlarini yo'lga qo'ygan. Ushbu tashabbuslar xorijlik talabalar uchun o'zbek tilini o'rganishda ishonchli va metodik jihatdan mukammal tizimli kurslarni taqdim etmoqda.

Shu bilan birga, internet tarmoqlarida xorijliklarga mo'ljallangan o'zbek tili darsliklari va onlayn kurslarning sifati masalasi ham muhim muammolardan biri sifatida ko'zga tashlanadi. Masalan, Hindistondan bo'lgan bir shaxs “YouTube” platformasida o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha videodarslar joylamoqda. Lekin u aslida o'zbek tilini yetarlicha bilmasligi seziladi, chunki hatto alifboni o'rgatish jarayonida ham jiddiy xatoliklarga yo'l qo'ymoqda. Masalan, “Ch” harfi turk tilidagi “ç” shaklida, “o” harfi esa “ö” tarzida noto'g'ri ko'rsatilgan. Shuningdek, grammatika va so'zlashuv

darslarida ham ushbu o'qituvchining bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yayotganini ko'rish mumkin. Auditoriyasi esa kattagina. Bunday misollar xorijliklarga sifatli ta'lim berish muhimligini, o'zbek tilini o'qitish bo'yicha aniq metodikaga asoslangan ishonchli resurslar yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Shu maqsadda, xorijiy talabalar uchun zamonaviy darsliklar, elektron platformalar va interaktiv o'quv materiallarini ishlab chiqish zarur. Bugungi kunda ingliz tilini o'rganish va mavjud bilimni baholash uchun IELTS, TOEFL, CEFR va shu kabi bir qancha sertifikat tizimlari mavjudligi barchaga ayon. O'zbek tilini bilish darajasini baholaydigan xalqaro sertifikat tizimi ham joriy etilishi kerak. Masalan, Turkiya “TÖMER” tizimi orqali turk tilini chet elliklarga o'rgatish va sertifikatlash tizimini muvaffaqiyatli yo'lga qo'ygan va natijada, juda tez fursatlarda turk tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish va talab ortib bormoqda. Ana shunday xorijiy tajribalardan o'rnak olgan holda, o'zbek tiliga moslashtirilgan tizimli yondashuv yaratish lozim.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida o'zbek tilini o'qitish samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, bugungi kunda ommabop til o'rganish platformasi hisoblangan “Duolingo” mobil ilovasi yordamida millionlab insonlar xorijiy tillarni o'rganmoqda. Ushbu platforma 40 dan ortiq tillarni o'rganishni taklif qiladi. Bunda jahon tillari va boshqa yirik tillardan tashqari, dunyo bo'yicha juda kam sonli aholi so'zlashadigan mayda tillar (eston tili, island tili, klinton tili, valerian tili va h.k.) ham bor. O'zbek tili o'z so'zlashuv auditoriyasi jihatidan salkam 40 million kishini tashkil qilishini e'tiborga olsak, “Duolingo” kabi til o'qitish tizimini yo'lga qo'yishimiz juda zarur. Agar o'zbek tili uchun ham bunday interaktiv platformalar yaratilsa, u yanada ommalashadi. Shu bois, AT mutaxassis-lari bilan hamkorlikda onlayn darsliklar, virtual lug'atlar, sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tarjimon dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Biroq masalaning yana bir tomoni mavjud, ya'ni sanab o'tilgan barcha ishlar o'ziga xos moddiy ta'minotni ham talab etadi. Shuning uchun tegishli mutasaddi tashkilotlar tomonidan o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish sohasi uchun ham zarur mablag' ajratish hamda texnik ta'minot ishlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Soha mutaxassislari, tilshunos va metodist olimlarni moddiy rag'batlantirishni ham mazkur yo'nalishda qilinishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Chunki har qanday sohaning rivoji ana shu yo'nalish uchun ajratilayotgan moddiy ta'minotning ko'lamiga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

O'zbek tili tobora xalqaro maydonga chiqayotgan va turli sohalarida o'rganilayotgan tilga aylanib bormoqda. Uning jahon miqyosida mustahkam o'rin egallashi uchun zamonaviy metodikalar, texnologiyalar va ta'lim yondashuvlarini joriy etish muhim. Bu nafaqat ona tilimiz, balki mamlakatimizning ham jahonda obro'si yanada ortishiga xizmat qiladi.

Zuhra ISROILOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

Taqriz



Hozirgi o'zbek tili akademik darsliklari va qo'llanmalarining aksariyatida "Leksikografiya" degan sarlavha ajratiladi, unda lug'atlarning ta'rifi va ularning turlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi hamda ularga misollar keltiriladi. To'g'ri, bu darsliklar dunyo lug'atchiligi, xususan, turkiy va o'zbek lug'atchiligi to'g'risida to'liq ma'lumot berishni nazarda tutmaydi. Uning vazifasi lug'atchilik to'g'risida bilim berishdir.

Aslida dunyo tilshunosligida lug'atchilik rivojlangan sohalardan biri. Bu borada arab tilshunosligida amalga oshirilgan ishlar e'tiborlidir. S.Usmonovning keltirishicha, arab tilida nostandart lug'atlar tuzish ishlari rivojlangan, jumladan, *qilichni* ifodalovchi 500 ta, *arslonni* ifodalovchi 500 ta, *tuyani* anglatuvchi 1000 ta so'zdan iborat lug'atlar tuzilgan. Ularda 60, 100 jildli lug'atlar tuzish amaliyoti bo'lgan (S.Usmonov Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1972, - B. 72). Turkiyotda ham bu sohada katta yutuqlar bor. Ularning barchasini sanab o'tmasak-da, eng muhimlarini eslatib o'tamiz: A.Z.Budagov. "Сравнительный словарь туретско-татарских наречий" (1871), "Древнетюркский словарь" (1969) va boshqalar. Turkiy xalqlar tilshunosligida ham qator lug'atlarni ko'ramiz. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati", qozoq tilida ko'p jildli "Qazaq tilining tysindirme sozdigi" (1982), elektron "Sozdik qor", qirg'iz tilida "Кыргыз tilinin dialektologiyalik sozdygy" (1972) va sanab tugatish mumkin bo'lmagan lug'atlar yaratilgan-ki, bu lug'atlar tilning ancha katta sahnlarini qamrab olgan.

Bu maqolada lug'atchilikni keng yoritish maqsad qilib qo'yilmagan, balki tarixiy lug'atchilik mahsuli sifatida taqdim etilgan Berdak Yusufning "Navoiy tili lug'ati" to'g'risida gap boradi.

Ma'lumki, Alisher Navoiy asarlariga lug'atlar uning o'z davridan boshlab yaratila boshlangan. Bu lug'atlar o'zbek til ilmidan dissertatsiyalar, monografiya va maqolalar shaklida o'rganilgan va o'rganilmoqda.

Alisher Navoiy asarlari tilining lug'atini yaratish ishi keyingi yillarda ham davom etgan. Bu haqda 1972-yili nashr qilingan "Navoiy asarlari lug'ati"ning tuzuvchilaridan biri S.Ibrohimovning unga yozgan so'zboshisida nisbatan batafsilroq ma'lumot berilgan va unda 1939-yili adib asarlarining ko'p jildli lug'atini tayyorlash bo'yicha ham rejalar qilinganligi to'g'risida ham yoziladi (Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati, 1972. – B.11.). Shuni aytish lozimki, asar muqaddimasida o'sha paytda A.S.Pushkin nomi bilan atalgan Til va adabiyot institutida lug'at tuzishga jiddiy tayyorgarlik ko'rilgani va adib asarlari bo'yicha 200 000 ga yaqin so'z va ularning kontekstlari kartotekasi yaratilgani hamda lug'atning 70 bosma taqdimot birinchi jildi tayyorlangani to'g'risida aytiladi, lekin uning taqdiri to'g'risida lom-mim deyilmaydi. To'g'ri, uning bosilmay qolishiga II jahon urushi sabab bo'lgani ta'kidlanadi, lekin bu tayyorlangan mahsulot qayerda qolganligi to'g'risida hech qanday ma'lumot yo'q, binobarin, "Lug'at"da 12 500 ga yaqin so'z sharhlanganligi va 8000 dan ortiq ibora keltirilganligi aytiladi, lekin bu fakt hozircha qorong'i bo'lib qolmoqda. Bu lug'at muqaddimasida 1953-yilda yaratilgan "O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at"dan farqli xususiyatlari ham bayon qilingan va ular 7 bandda ko'rsatilgan. Eng muhimi, bu lug'atda so'zning bosh ma'nosiga(unda bosh so'z deyilgan) e'tibor qaratilgan. Tan olish kerakki, bu lug'at olingan so'zlarni tavsif va talqin qilish jihatidan mukammal edi va mumtoz adabiyotimiz bilan qiziquvchilarga va tadqiqotchilarga hozir ham xizmat qila oladi. "Lug'at"da, asosan, Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan hozirgi zamon o'quvchisi uchun tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarga e'tibor berilgan, shuningdek, uning katta yutuqlaridan biri har bir so'zning arab grafikasidagi variantini ham keltirib borishi bo'lgan. To'g'ri, uning so'z qamrovi

Alisher Navoiy asarlari



hozirgi talablarga javob bermas edi, shu tufayli ham buyuk adabiyotimiz matnlari tilini har tomonlama tushunishga kamlik qilardi. Bu esa Alisher Navoiy asarlarining to'la lug'atini yaratish g'oyasini yana ham jonlantirgan. Ushbu Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan nashr etilgan P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlar tomonidan tuzilgan "Navoiy asarlari lug'ati" ko'p yillar ilmiy xodimlar va navoiyshunoslik bilan shug'ullanuvchilar uchun xizmat qilib keldi. Bu lug'at, ta'kidlaganimizdek, adib asarlarining barcha qirralarini aks ettirmagan bo'lsa-da, unda eng zarur bo'lgan so'zlarni tushuntirish imkoniyati bo'lgan va u keyinchalik E.Fozilov rahbarligidagi 4 jildlik "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" (1983–1985) uchun asos vazifasini ham bajardi.

E.Fozilov tahriri ostida yaratilgan "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" bunday asarga bo'lgan ehtiyojni qoplashga qaratilgan edi. Bu lug'at 4 jildidan iborat bo'lib, unda qancha so'z qamrab olingani ma'lum qilinmagan.

Ushbu lug'at tuzuvchilarining o'z uslubi ham ko'rinadi: so'zning fonetik variantlari bir bosh so'zda berilgan, omonim so'zlar alohida tavsiflangan, lug'atda tarjima varianti, tushunilishi, izohlari berib boriladi, so'zning hozirgi o'zbek tilidagi bir necha sinonimlari keltiriladi va boshqalar, ammo uning 2000 nusxada chop etilishi bu lug'atga bo'lgan ehtiyojni qoplay olmas edi. Shuningdek, ushbu lug'at ilmiy xodim va talabalar-gagina mo'ljallangani ham muhokamaga sabab bo'lishi mumkin, ya'ni bu toifa kishilariga mo'ljallanadigan bo'lsa, unda misollar asl manba yozuvida berilishi va unda transkripsiyadan foydalanish lozim bo'lar edi. Nashr qilingan holatiga ko'ra, u Alisher Navoiy asarlarini keng kitobxon ommasiga moslaganligi ko'rinib turibdi. E'tirof etish joizki, bu lug'atni yaratish ishiga salohiyatli, maxsus tayyorgarligi bor olimlar jalb qilingan va katta so'zlikdan foydalanilgan. Tilga olingan har ikkala lug'atni hozir o'sha davrda yashagan va lug'atga egalik qilgan shaxslar va yirik kutubxonalardagina topish va foydalanish mumkin.

Mazkur lug'atning nashri 1985-yili yakunlangan, tasavvur qilingki, 2018-yilga qadar bunday lug'at tuzishga hech kim jazm qilmadi. To'g'ri, yaqinda V.Rahmonov boshchiligidagi o'quvchilar va talabalar uchun "Mumtoz asarlar lug'ati" (2019) nashr qilindi. Unga ham ijobiy munosabatimni yashirmayman. Lekin qariyb 40(deyarli yarim asr) yildan beri Alisher Navoiydek buyuk zot asarlarini o'qish va tushunish uchun ayrim kichik nashrlarni hisobga olmaganda, tuzukkina lug'atga ega bo'lmadik. Shukrki, bu kemptikni filologiya fanlari nomzodi B.Yusuf hal qilish arafasida turibdi.

Albatta, dunyo miqyosida tanilgan adib asarlari lug'atini mavjud tajribalardan farqli darajada yara-

tish o'ta mashaqqatli ish ekanligini ahli ilm biladi. Va alalxusus, avvallari ijodiy guruhlar yoki hamkorlikda yaratilgan lug'atlar va yakka mualliflik lug'ati tushunchalari ham bor bu yerda. Mana shu ruhiy masalani jiddiy tushunish asosida boshlangan "Navoiy tili lug'ati" (I jildi 4730 bosh so'z, II jildi 3724 bosh so'z, III jildida 4610 bosh so'z izohlangan) yangi yondashuvlarni taqozo etardi. Bu mashaqqatli mehnatnigina emas, balki kuchli tayyorgarlikni ham talab qilar edi:

➤ *birinchidan*, turkologiya hamda o'zbek tili tarixining nazariy va amaliy bilimlariga ega bo'lish va bu sohada ulkan tajribadan kelib chiqqa olish;

➤ *ikkinchidan*, adib asarlari bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lish, ya'ni o'z va xorijiy davlatlarda saqlanayotgan adib asarlari nusxalaridan xabardor bo'lish;

➤ *uchinchidan*, buyuk adabiyotimiz bo'yicha, xususan Alisher Navoiy asarlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni tizimli o'rganib borish va ulardagi xulosalar va adib haqiqatiga baho bera olish;

➤ *to'rtinchidan*, adib ruhiyatiga kira olish, ya'ni buyuk adabiyotimizning so'z qo'llashdagi nozik qirralarini his qila olish;

➤ *beshinchidan*, adib asarlari bo'yicha tuzilgan lug'atlar va ularning yutuqlariga baho bera olish;

➤ *oltinchidan*, faqat leksikografik ilm emas, balki leksikologiyaning semasiologiya(polisemiya), eti-

So'z tarixi – o'z tariximiz

"Shajarayi turk"da

Abulg'ozixxon oliy nasab va toj-u taxt sohibi bo'lgan. U qariyb 20 yil(1644–1664) Xorazmni idora qildi, lekin tarixda oliy hukmdor bo'libgina qolmay, balki yirik olim sifatida tanildi.

Undan ikki tarixiy asar qoldi. Biri "Shajarayi tarokima", ikkinchisi "Shajarayi turk". "Shajarayi turk"ning yozilish tarixi haqida Abulg'ozixxon batafsil shunday deydi: "Ammo bizning ota-aqalarimizning beparvoligi va Xorazm xalqining bevuqufligi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullaxonning birlan bizning otalarimizning ayrilgan yeridin to bizga kelguncha bo'lgan davr tarixi yozilmagan. Bu ishni bir kishiga taklif qilali deb fikr qilduk, lek hech munosib kishi topmadik, zarur bo'ldi va ul sababdin o'zimiz aytduk".

"Shajarayi turk" asari o'zbek tilining noyob xazinasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Uni sinchkovlik bilan o'rgansak, tilshunosligimiz bir emas, bir necha pog'onaga yuksaladi: "Chingizxon o'n ming kishini bir kishiga topshurdi. Taqi anga tuman aqasi ot qo'ydi va ming kishini bir kishiga topshurub hazora ot qo'ydi. Yuz kishini bir kishiga topshurub sad ot qo'ydi. O'n kishini bir kishiga topshurub dahcha ot qo'ydi".

Chingizxonning chigal taqdirini hamma har xil talqin va taxmin qiladi. Shu qatori tilini ham. "Shajarayi turk"da Chingizxon nutqidan misollar yozilganidan kelib chiqib, bir qator yechimga muhtoj fikr-mulohazalarni o'rta tashlash o'rinli. Masalan, *hazora, sad, dahcha* kabi so'zlarning fors-tojik tilidan Chingizxon va mo'g'ullarning kundalik so'zlashuviga qanday, qachon, qay tarzda, buncha tez o'rtnashib qolishi masalasini yaqqol ilgari sursa bo'ladi.

"O'ksuz o'z kindigin o'zi kesar" – bu maqol buyuk turkologiya asoschisi Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida uchraydi. Maqol ayrim lahjalarimizda asl holidan va o'zgarishli variantida saqlanmoqda. Bu maqolning o'zgarishga uchragan varianti *eksik, o'ksik* kabi leksemalar bilan boshlanadi. Maqolning ma'noviy jihatiga e'tibor bersak, *yetim o'z*



lugʻatchiligida yangi sahifa

mologiya kabi nazariy qoidalarini oʻzlashtirgan boʻlishi talab qilinadi. Bu talablardan lugʻat tuzuvchining yetarli darajada xabardor ekanligi sezilib turibdi.

Shuni aytish lozimki, mazkur lugʻat haqida fikr yuritish undan oldin bajarilgan lugʻatlarning mohiyatini kamsitishga qaratilmaydi, balki ular, taʼkidlaganimizdek, oʻz oldilariga qoʻygan maqsadni amalga oshira olgan va xalqimizga ijobiy maʼnoda xizmat qilib kelgan, demak, bu oʻrinda gap Alisher Navoiyni yaqinroq tushunishga xizmat qiladigan lugʻat tahlil obyekti boʻladi. Ayni oʻrinda bir fikrni ham aytib oʻtish zarurati bor. Bu lugʻat Alisher Navoiy asarlarini oʻqiydigan har qanday shaxsga emas, koʻproq ilmiy xodimlar va oliy taʼlim muassasalarida ilm orqali adib asarlarini oʻrganuvchilarga moʻljallanganligi maʼlum boʻlmoqda. Bunday deyilishga “Lugʻat”da arabcha soʻzlardagi ayrim harakatlarning oʻqilishi bilan bogʻliq transkripsion tizimni tavsiflashda bildirilgan fikrlar asos boʻlmoqda.

Endi B.Yusufning lugʻatni tuzishdagi oʻziga xosliklar toʻgʻrisidagi fikrlari tahliliga toʻxtalamiz. Uning “Alisher Navoiy asarlari izohli lugʻati” (ANATIL) dan farqlarini koʻrsatadi. Aslida ular umumlashtirilsa, quyidagi mazmun anglashiladi:

1. “Kirish” qismida lugʻatda arab yozuvidagi variantidan soʻng transkripsiyasi ham berilganini taʼkidlaydi. Haqiqatan ham, lugʻatda soʻzlar kirill alifbosida *bosh soʻz* → uning arab yozuvidagi varianti (manbaga mu-

vofiq) → katta qavsda *transkripsiyasi* → *izoh* tartibida berilgan. Eʼtiborli tomoni shundaki, unda Oʻzbekistonda birinchi boʻlib Alisher Navoiy asarlaridagi izohlanayotgan soʻz transkripsiyada berilgan. Bu transkripsion tizimni qoʻllash bilan bogʻliq boʻlgan muammolar ham borki, u haqda boshqa ishlarda alohida fikr yuritiladi. Eng muhimi, bu lugʻatda transkripsiyaning joriy etilganidir.

2. Shuningdek, 3–14-bandlarda “Alisher Navoiy asarlari izohli lugʻati” (ANATIL)dagi izohlarga qoʻshilmagan oʻrinlarga ham toʻxtaladi hamda asosli fikrlarni maʼlum qiladi.

3. Lugʻatda sodda, yasama, qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar, turgʻun iboralarning izohlanayotganligi ham aytiladi. Xullas, lugʻat tuzuvchi mazkur lugʻatga kirishishdan oldin maqsad va vazifalarni toʻliq anglab olgan va bu uning rejasini ham bildirar edi.

Endi lugʻatni oʻtmishdosh, xususan, S.Ibrohimov va E.Fozilovlar (Taqriz davomida P.Shamsiyev, S.Ibrohimovlarning “Navoiy asarlari lugʻati” haqida gap ketganida faqat S.Ibrohimov nomi, E.Fozilov rahbarligidagi “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati” toʻgʻrisida fikr yuritilganida faqat E.Fozilov nomiga murojaat qilinadi) tuzgan lugʻat variantlari bilan birga tahlil qilishga oʻtamiz. Lugʻatlardagi ayni bir soʻzni izohlashda quyidagicha yondashuvlar koʻzga tashlanadi:

1. Har uchala lugʻat **AZZ** soʻzi izohi bilan boshlanadi. S.Ibrohimovlar uni “eng aziz, eng izzatli”, E.Fozilovlar “eng aziz, azizroq” va B.Yusuf “eng aziz, eng ardoqli, eng izzatli” deb izohlaydilar. E.Fozilovlarda “azizroq” izohi xato berilganligini hisobga olmaganida izohlar deyarli aynan. Bu *ab*, *abdon*, *atr*, *afvoj* va boshqa soʻzlarda ham qayd qilinadi.

2. Soʻzlarning matnlardagi maʼnosi kengroq izohlangan:

Butkar. Uning uch maʼnosi misollar asosida izohlanadi. S.Ibrohimov uning bir maʼnosiga, E.Fozilov ikki maʼnosiga manbadan misol keltiradi.

But. Uning 7 maʼnosi, S.Ibrohimovda ikki, E.Fozilovda toʻrt maʼnosi keltirilgan.

Davr. Uning 11 maʼnosi, S.Ibrohimov toʻrt, E.Fozilov besh maʼnosining kontekstdagi maʼnolarini qayd etadi.

3. Ushbu lugʻatda avvalgi lugʻatlarda aks etmagan soʻzlar izohlangan, boshqacha aytganda, Navoiy asarlaridagi soʻzlar qamrovi keng. Avvalo, uni dastlabki ikki jildning uch harfi misolida asoslashga harakat qilamiz.

“A” harfi boʻyicha: *abadiya*, *abadiyat*, *abardih*, *abarkuh*, *abbodon*, *Abbosul-ahvol*, *abdolnoma*, *qator kishi ismlari*, *abivard*, *abonjat*, *abogʻa*, *abrmonand*, *abrxirom*, *abtarligʻ*, *abtahiy*, *abuz-zifon*, *abuka*, *abul-ajam*, *avrodligʻ*, *avroqorosta* va h.k. Bu soʻzlar 17–31-sahifalardan olindi, 32-betdan to 170-betgacha ular yana ham katta miqdorni tashkil etishi mumkinligi shu satrlarni oʻqiyotganlar uchun ayon boʻlsa kerak.

“B” harfi boʻyicha: *bavaqt*, *bavl*, *bavodiypaymo*, *bagoʻsh*, *badasl*, *badaxshiy*, *badfarjom*, *badxayol*, *bazl-soz*, *bazmsaro*, *bazmsozligʻ*, *bazmfuroʻzanda*, *bayʻ*, *baygʻora*, *bakamol*, *bakor* va boshqalar.

“K” harfi boʻyicha: *-ki*, *kabutardam*, *kabutarxon*, *kavkabafroʻz*, *kavkabmisol*, *kajnazar*, *kajova*, *kajravo-yin*, *kaklik*, *kalla*, *kamardoʻzliq*, *kambizoat*, *kamo-besh*, *kamsarmoya*, *kamsuxan*, *kamtarin* va boshqalar.

Bu tajribani boshqa harflar misolida ham amalga oshirish mumkin. Xullas, bu lugʻatda avvalgi lugʻatlarda eʼtiborga olinmagan anchagina soʻzlar izohga tortilgan. Taʼkidlash joizki, oldingi lugʻatlarda ham B.Yusuf nazariga tushmagan soʻzlar ham bor edi. Oʻylaymizki, lugʻatchi keyingi jildlarda ularni hisobga oladi. Demak, lugʻat tuzuvchilarning har biri oʻz muvaffaqiyatlari-ga ega boʻlgan va shuning uchun ham ular oʻz qadri-ni yoʻqotgan emas. Biz yaqin oʻtmish va mustaqillik davrida Alisher Navoiy asarlari boʻyicha yaratilgan lugʻatlarga eʼtibor qaratamiz va bu jarayonda muhokama obyekti boʻlgan lugʻatning oʻziga xos tomonlarini yoritishga harakat qilamiz.

Lugʻatning oʻtmish lugʻatlardan mazmunan boy-ligini ayrim soʻzlar va ularning leksikalizatsiyalash-gan birikmadagi maʼnosi atroficha izohlanganligidan ham bilish mumkin. Jumladan, buni *ahl* soʻzi izohida koʻrish mumkin. Bu soʻz va uning kichik konteksti izohi lugʻatning 151–167-sahifalaridan oʻrin olganli-gi fikrimizni asoslab turibdi. Bu sahifalarda B.Yusuf ularning 171 birikmadagi 200 ga yaqin maʼnosini fak-tik misollar orqali asoslaydi. Toʻgʻri, bu soʻz va u bilan bogʻliq boʻlgan kichik kontekst oldingi lugʻatlarda ham mumkin qadar koʻproq qayd qilingan. Faktlarga muro-jaat qilamiz. S.Ibrohimovlar lugʻatida 52 birikmada, E.Fozilovlar lugʻatida 160 birikmada qayd etilgan. Albatta, bu izohlarning qiyosiy tahlili ilmiy jihatdan oʻzining bahosiga ega boʻlishi lozim.

Avvalgi lugʻatlardagi baʼzi yanglish izohlarga er-gashib ketmaydi. E.Fozilov *badraqa* soʻziga *haydalgan* degan izohni beradi va:

Badraqayi rohi najoti boʻlub,
Mujibi rafʻi darajoti boʻlub –

baytini keltiradi. Lekin S.Ibrohimov lugʻatida *badraqa* soʻzini *yoʻl boshlovchi*, *karvon boshligʻi* tar-zida izohlaydi. B.Yusuf ham yuqoridagi baytda aynan *badraqa* soʻzi shu maʼnoda qoʻllanganini oladi. Bayt mazmunida ham *haydalgan* tushunchasi mavjud emasligi yaqqol koʻrinib turibdi.

Lugʻatni xatoliklardan xoli, beqiyos deyish ham mumkin boʻlmas. Unda ayrim fikr aytish mumkin boʻlgan oʻrinlar yoʻq emas. Ularning baʼzilari ilmiy yondashuvga borib taqaladi, u ham boʻlsa, transkrip-siyaning amaliy emasligi, ayrim transkripsion belgilar oʻzini oqlamasligi(masalan, *ä*), shuningdek, bu lugʻat-ning oʻtmishdoshlaridan jiddiy farqlanuvchi xususiyat-lari, yaʼni yondashilgan tamoyil u qadar asoslanma-ganligida koʻrinadi. Ayrim eʼtiroz bildirilishi mumkin boʻlgan faktlarga toʻxtalamiz:

Arab grafikasidagi soʻz xato transliteratsiya qilin-gan: ato-ano. Bu soʻz garchi oʻzbek adabiy tilida *ota-ona* deb yozilsa ham, Alisher Navoiy asarlarida u trans-kripsiyada *ata-ana* yozilishi lozim(ana shunda turkiy singarmonizm xususiyatiga mos boʻladi). Bu lugʻatda shu soʻz ishtirok etgan boshqa variantlari ham, hozirgi oʻzbek tilidagi varianti ham bosh soʻzda berilishi maq-sadga muvofiq. Bu xato har uchala nashrda mavjud.

Soʻzlarga yetarli darajada izoh berilmagan: *atf* soʻziga va bogʻlovchisini anglatgan misol berilgan-ligidan shunday tushunilishiga asos boʻlgan. E.Fozi-lovlar lugʻatida nisbatan toʻgʻriroq yoritiladi va uning “grammatik termin, soʻzlar birikishi” maʼnosi beriladi. Aslida u ham grammatik shaklni, ham bogʻlovchini anglatgan. Alisher Navoiy shu soʻzni keltirgan oʻrin-da “va” bogʻlovchisi uchun ishlatgan, xolos. Yana bir fikrni takidlashni istardimki, Alisher Navoiydek buyuk adib, mutafakkirni keyingi davrda dunyo yetishtirgani yoʻq. Shu tufayli uning faoliyatiga bagʻishlangan har qanday asarni va nomini tilga olishda uning toʻliq nomi va toʻgʻri ifodasi bilan yuritishga odatlanishimiz lozim, yaʼni *Navoiy* emas, **Alisher Navoiy**, *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati* emas, **Alisher Navoiy asarlarining izohli lugʻati** tarzida toʻgʻri yozilishi maqsadga muvofiq, chunki “asarning tili” boʻlmay-di. *Navoiy tili* deb yozilishi va yuritilishiga mutlaqo qoʻshilib boʻlmaydi. Bu B.Yusufga qisman aloqador boʻlsa-da, uning kamchiligi sifatida qarash oʻrinsiz boʻladi, balki bu holat ilmiy dunyomizda keng tarqal-gan.

Tan olish kerakki, bu lugʻatda avvalgi lugʻatlarga qaraganda keng qamrov olinganligi, soʻzlarga tavsif berishda muallif oʻz yoʻlini tanlagani koʻrinib turibdi.

B.Yusufning ushbu lugʻati Alisher Navoiy asarlari lugʻatini yaratishdagi yangi bosqich boʻlib xizmat qila-di va uning bu amalga oshirgan ulugʻ ishi hozirgi ho-latida ham uning ilmiy unvonga tavsifiya etilishiga asos boʻlishi mumkin. Bunga u haqlidir.

Samixon ASHIRBOYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor

frazeologik birliklar tasnifi

kindigini oʻzi kesar, yaʼni hozir tilimizda oʻrnashib qolgan, koʻp takrorlanadigan va biroz eskirib qolayot-gan *oʻzing uchun oʻl yetim dunyo* iborasining tub, kengaytma shaklini ifodalaydi. Bundan tashqari, ush-bu birlikning fors-tojik tilidagi koʻrinishi ham mav-jud: “*Yakim nofi xudro xud meburad*”.

“It semirsa egasini qopar” – bu leksik birlik ho-zirga qadar shakl va mohiyatini yoʻqotmagan. Ma-qolning yoshi, manbalarga koʻra, 6-7 asrni tashkil qiladi.

“Hech narsaning martabasi toʻqquzdan yuqori boʻlmas, nihoyati toʻqquz” – Abulgʻoziy Bahodir-xon “Shajarayi turk” asarida keltirgan bu maqol-ning ayni vaqtdagi ayrim hududlarda(oʻgʻuz, qipchoq shevalarida) elas-elas quloqqa chalinadigan mana bu namunasini bevosita taʼkidlash mumkin: “*Hech ni-marsaning martabasi toʻqqizdan yuqori boʻlmas*” va “*Hech narsaning martabasi toʻqqizdan oshmas*”.

Xalq ongida shakllangan bu jumlaning tarixiy tuzilish davri uzoq yillarga borib taqaladi. “*Hech narsaning martabasi toʻqquzdan yuqori boʻlmas, nihoyati toʻqquz*” deganda, butun sonlar nazarda tutilgan. Buning isboti oʻlaroq, odamzodning bu dun-yoga kelishi ham Olloh taolo tomonidan odatda 9 oy, 9 kun, 9 soat asnosida tayin qilingan. Qolaversa, muallif maʼlumot berishicha, oʻsha davrda shaharlar-ni turli martabasiga koʻra, toʻqqizga ajratib nomlash amalda boʻlgan ekan:

1-martabali viloyatgʻa – **king**(Rum, Eronni shun-day atashgan);
2-martabaga – **zu**(Istanbul, Misr, Isfahon);
3-martabaga – **fu**;
4-martabaga – **ju**;
5-martabaga – **bun**;
6-martabaga – **kun**;
7-martabaga – **hin**;
8-martabaga – **chin**;
9-martabaga – **sun** deb laqab qoʻyilgan.

Salohiddin KOMILOV,
Shavqiy XALILOV,
OʻzMU talabalari



Muhokama uchun mavzu

O'zbekistonda turli millat va elat vakillari yashaydi. Yurtdoshlarimizning ma'lum bir qismi ruscha ism-familiyalarga ega. Bunday so'zlarni o'zbek lotin alifbosida to'g'ri aks ettirish imkonini bormi? Chunki ularga ham tegishli rasmiy hujjatlar lotincha imlodagi beriladi. Lotincha yozuvimizning grafik imkoniyatlari ruscha ism-familiyalardagi nozik jihatlarni aks ettira oladimi? Mana shu savollarga javob qaytarish, aniqrog'i, o'zbek lotin alifbosida transliteratsiya qilish masalalari o'zbek tilshunosligidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib turibdi. Negaki, ruscha ism-familiyalar – antroponimlar hamda joy nomlari – toponimlarni o'zbek lotin alifbosida aks ettirishda ancha munozarali holatlar mavjud. Chunki bunday familiyalarining aksariyatida “yolashgan unlilar” qo'llangan bo'lib, o'ziga xos talaffuzga ega so'zlar sanaladi. Demak, ruscha antroponim va toponimlar imlosi alohida yondashuv, o'ziga xos tamoyillarni ishlab chiqishni taqozo qiladi. Bino-barin, o'zbek lotin alifbosining grafik imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalanish, ayni paytda hozirga qadar erishilgan talaffuzdan ham uzoqlashib ketmaslik lozim bo'ladi.

Tekshirishlardan ma'lum bo'ladiki, ruscha ism va familiyalarining ba'zilarini o'zbek lotin alifbosiga o'girishda orfografik muammo tug'ilmaydi: xuddi o'zbekcha ismlar kabi transliteratsiya qilinadi. Masalan, *Ivanov, Petrov, Sidorov, Nekrasov, Fedotov, Pushkin, Putin, Mishustin, Gagarin, Tereshkova, Titov, Medvedev, Gusev, Komlev, Turgenev* va shu kabi familiyalar o'zbek lotin alifbosida *Ivanov, Petrov, Sidorov, Nekrasov, Fedotov, Pushkin, Putin, Mishustin, Gagarin, Tereshkova, Titov, Medvedev, Gusev, Komlev, Turgenev* shaklida o'giriladi. Bunday amallarni kompyuter dasturlari orqali ham amalga oshirish mumkin.

Yevropami Evropa: Ee harfi
necha xil o'giriladi?

Ruscha ism-familiyalarda qo'llangan “yolashgan unlilar” orasida o'zbek lotin alifbosida transliteratsiya qilish – aks ettirish murakkab harflardan biri *Ee* harfidir. Ma'lumki, *Ee* harfi rus imlosida, shuningdek, o'zbek kirill alifbosida ham 2 xil vazifa bajaradi: 1) so'z va bo'g'in boshida [й+э] tovushlari o'rnida ishlatiladi; 2) so'z o'rtasida undosh tovushlardan keyin yoki yopiq bo'g'inida [э] tovushini ifodalaydi. Masalan, *Egor, Elena, Evropa, Elyцин* kabi so'zlarda [й+э] tovushlari eshitaladi, shu boisdan ham *Yegor, Yelena, Yevropa, Yelsin* shaklida o'giriladi. Mabodo, *Egor, Elena, Evropa, Elsin* tarzida o'girilsa, [эгор], [элена], [эвропа], [элсин] kabi talaffuz yuzaga keladi va hozirgi talaffuzlardan uzoqlashib ketadi. Shunday ekan, so'z yoki bo'g'in boshida kelgan *Ee* harfi har doim *Ye (ye)* tarzida yozilishi lozim. *Medvedev, Fomichev, Demichev* kabi familiyalarda esa *e* harfi [э] tarzida aytilgani bois, ularni o'zbek lotin alifbosida *Medvedev, Fomichev, Demichev* shaklida berish to'g'ri bo'ladi.

Ee harfli familiyalar orasida *Juravlev, Snesearev, Ponomarev, Shmelev* kabi leksemalar mavjud. Mazkur familiyalarda qo'llangan *e* harfi amalda [йэ] yoki [э] tarzida emas, balki [йо]ga yaqin talaffuz qilinadi: [журавлийов], [снесарийов], [пономарийов], [шмелейов]. Biz hozirga qadar o'zbek kirill alifbosida rus tilidagi shaklda yozib keldik. Lekin lotincha alifboda ko'rsatib o'tilgan leksemalarni *Juravlev, Snesearev, Ponomarev, Shmelev* shaklida bera olmaymiz. Chunki mazkur shakllarda yozish orqali quyidagicha talaffuz yuzaga keladi: [журавлѐв], [снесарѐв], [пономарѐв], [шмелѐв]. Ko'rinib turibdiki, bunday aytilishlar o'zbeklar nutqiga xos emas. Demak, yuqorida zikr etilgan familiyalarni jonli nutqdagi talaffuzga muvofiq tarzda *Juravlyov, Snesearyov, Ponomaryov, Shmelyov* shaklida yozish ham orfoepik, ham orfografik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

Rus tilidagi *Ee* harfli ism-familiyalardagi yana bir holat *ѐ* shaklidagi leksemalar transliteratsiyasi bilan bog'liq. Chunki ruscha familiyalar orasida *Azaryev, Ananyev, Arkadyev, Arsenyev, Artyomyev, Leontyev, Zinoviyev, Dementyev, Grigoryev* kabi yozilishlar salmoqli o'rin egallaydi. Bunday leksemalarning imlosidagi o'ziga xoslik nimada? Masalaning mohiyati shundaki, *ѐ* belgisi, odatda, o'zbek lotin alifbosida aks etmaydi: *Rozental - Rozentall, Koval - Koval* va shu kabilar. Biroq yuqorida zikr etilgan familiyalardagi yumshatish belgisi (*ѐ*) ma'lum bir fonologik vazifa bajarishga xoslangan. Masalan, *Lazarev* va *Lazaryev* familiyalari misolida bir orfografik muammoning nozik qirralarini ko'rsatish mumkin: *Lazarev* lotinchada *Lazarev* shakliga ega bo'ladi, chunki ushbu so'zning talaffuzida [э] tovushi eshutilib turadi. *Lazaryev*da esa *ѐ* belgisi va *e* harfining yonma-yon qo'llanishi boshqa bir tovushlar kompleksini yuzaga keltiradi: [лазарѐев]. Ko'rinadiki, yumshatish belgisi (*ѐ*) o'zidan oldingi undosh – [p]ning yumshoqligini ko'rsatish bilan birgalikda o'sha so'zda yangi bir bo'g'inni hosil qiladi: [a-zar-ѐev]. Shunday ekan, bunday tipdagi famili-

YOZUV AMALIYOTIDAGI
ayrim ruscha ism-

yalar o'zbek lotin alifbosida quyidagi shaklda berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi: *Azaryev, Ananyev, Arkadyev, Arsenyev, Artyomyev, Leontyev, Zinoviyev, Dementyev, Grigoryev*.

Ruscha familiyalarda *ѐ* shaklida uchraydigan orfogrammalar ham mavjud. Masalan, *Ильич, Ильин* ko'rinishida yoziladigan leksemalarni transliteratsiya qilishda ham o'ziga xos yondashuv zarur bo'ladi. Negaki, mazkur orfogrammalaridagi *ѐ* belgisining vazifasi umuman boshqacha. Binobarin, *ѐ* belgisi yuqoridagi misollarda o'zidan oldingi undosh – [л]ni yumshoqroq aytishga ishora qilish bilan bir qatorda, o'zidan keyingi qismlar: *-ич* va *-ин* ni ajratib talaffuz etishni ham taqozo qilmoqda. Shu boisdan ham bunday leksemalarni *Ilyich, Ilyin* shaklida yoxud *Ilich, Ilin* tarzida berish mumkin emas. Chunki bunday holatlarda [илийч], [илийн] yoki [илич], [илин] kabi aytilishlar yuzaga keladi. Nazarimizda, bunday holatlarda o'zbek lotin alifbosida mavjud bo'lgan tutuq belgisi – (') dan foydalanish masalaning to'g'ri orfografik yechimiga olib boradi: *I'ich, I'in* shaklidagi orfogrammalar yuzaga keladi. Bu esa manba til – rus tilidagi so'z shakllari: *Ильич* va *Ильин* o'zbek lotin alifbosida o'zining haqiqiy orfogrammasiga ega bo'lganidan darak beradi. Xuddi shunday yondashuvni *Azaryin, Ananyin, Arkadyin, Zaxaryin* kabi familiyalarni yozishda ham qo'llash mumkin. Natijada *I'ich, I'in, Azar'in, Anan'in, Arkad'in, Zaxar'in* shaklidagi orfogrammalar yuzaga keladi, manba til va o'zlashtirayotgan til orasida fonetik, orfoepik va orfografik simmetriya amalga oshadi. Alalxusus, ana shunday yondashuv o'zbek lotin alifbosining grafik imkoniyatlari ancha boyligidan dalolat beradi.

Ee harfi ism-familiyalar tarkibida yonma-yon (qo'shaloq) holatda ham qo'llanishi mumkin. Masalan, *Андреев, Дорофеев, Евстифеев, Евстигнеев, Минеев, Малофеев, Моисеев, Михеев, Пантелеев, Федосеев* va shu kabi familiyalarda *ee* harfli orfogrammarga duch kelamiz. Xo'sh, bunday holatlarda orfografik yechim qanday bo'ladi? Aslida, *Ee* harfining lotincha imlodagi 2 xil usulda o'girilishi ma'lum: *e* yoki *ye* tarzida berish mumkin bo'ladi. Darvoqe, mana shu tamoyildan kelib chiqib, *Андреев* familiyasini *Andreyev* shaklida yozish mumkin bo'ladi. Chunki ayni shu holatda [андрейѐв] tarzidagi talaffuz yuzaga keladi, manba tilidagi orfografik me'yorlar saqlanib qoladi, aytilishda ravonlik paydo bo'ladi. Demak, yuqorida zikr qilingan familiyalar o'zbek lotin alifbosida quyidagi shaklga ega bo'ladi: *Andreyev, Dorofeyev, Yevstifeyev, Yevstigneyev, Mineyev, Malofeyev, Moiseyev, Mixeyev, Panteleyev, Fedoseyev*.

Shu o'rinda *Ee* harfining ayrim ruscha familiyalarda 3 o'rinda – so'z boshida, o'zak oxirida va familiya yasovchi *-ev*da ishlatilishini alohida ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Masalan, *Евсеев, Елисеев, Еремеев, Ерофеев* kabi familiyalarda ayni shu holatni kuzatish mumkin. Aynan mana shu tipdagi leksemalarda orfografik muammo nimada namoyon bo'ladi? Nazarimizda, bunday holatlarda ikki nuqtaga e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, ko'rsatib o'tilgan leksemalarda *E* harfi so'zning boshida turgani sababli *Ye* shaklida o'girilishi zarur bo'ladi. Ikkinchidan, o'zbek kirill va lotin alifbolarida mazkur familiyalarni yozishda harflar miqdorida sezilarli o'zgarish ro'y beradi. Masalan, kirillcha yozuvda *Евсеев* familiyasi 6 harf bilan ifodalansa, lotincha yozuvda 8 ta harf ishtirok etadi – *Yevseyev*. Shuningdek, *Елисеев, Еремеев, Ерофеев* leksemalarini kirillchada 7 harf bilan yozilgan bo'lsa, ularni lotinchada 9 harf bilan yozishga to'g'ri keladi. Binobarin, eslatib o'tilgan tamoyilga ko'ra, o'zbek lotin alifbosida quyidagi orfogrammalar yuzaga keladi: *Yevseyev, Yeliseyev, Yeremeyev, Yerofeyev*. Demak, ayni shu shakllarda yozilgan orfogrammalar [йевсейѐв], [йелсейѐв], [йеремейѐв], [йерофейѐв] kabi o'qiladi hamda tovush va harf orasidagi mutanosiblik – orfografik simmetriya ta'minlanadi.

Tekshirishlardan ma'lum bo'ladiki, ruscha ism-familiyalardagi *Ee* harfini o'zbek lotin alifbosida to'g'ri aks ettirish, bu – shunchaki mexanik jarayon emas. Buning uchun juda ko'p leksemalarni to'plash, ularni fonetik, orfoepik va orfografik jihatdan o'rganish, o'zbek kirill va lotin alifbolarida qiyosiy tahlil qilish, undan keyingina ma'lum bir tavsiyalarni berish lozim bo'ladi. Masalan, ruscha familiyalar orasida *Gorbachev, Grachev, Ligachev, Pugachev, Sichev (Sychev), Tkachev, Tolkachev, Xrushchev* singari orfogrammalar bor. Mazkur familiyalar o'zbek kirill alifbosida ham deyarli shu taxlitda yoziladi. Agar ko'rsatib o'tilgan familiyalar kompyuter dasturlari orqa-

li o'girilsa, quyidagi orfogrammalar yuzaga keladi: *Gorbachev, Grachev, Ligachev, Pugachev, Sichev (Sichyov), Tkachev, Tolkachev, Xrushchev*. Mazkur familiyalarining transkripsiyasidan ma'lum bo'ladiki, [горбачѐв] yoki [лигачѐв] kabi aytilishlar yuzaga keladi. Bu esa hozirga qadar mavjud bo'lgan, ya'ni jonli o'zbek tilidagi talaffuzga umuman mos kelmaydi. U holda *Gorbachyov, Ligachyov* shaklida yozilsa, orfografik jihatdan to'g'ri bo'ladimi? Yo'q, bu holatda ham o'zbeklar nutqiga xos bo'lmagan talaffuz – [горбачйов] yoki [лигачйов] yuzaga keladi. Demak, bunday orfogrammalar ham amaliy jihatdan o'zbek tili tabiatiga to'g'ri kelmaydi. Shunday ekan, bunday tipdagi leksemalarni o'zbeklarning jonli nutqiga mos tarzda *Gorbachov, Ligachov* shaklida yozish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ayni shu orfogrammalarida [горбачов], [лигачов] tarzidagi aytilish saqlab qolinadi. Ayni paytda o'zbek lotin alifbosining yana bir afzalligi – yetarlicha grafik imkoniyatlarga egaligi namoyon bo'ladi, talaffuz va yozuvdagi uyg'unlik ta'minlanadi, ona tilimizning milliy tarovati ko'zga tashlanadi. Negaki, “Har bir tilning o'ziga xos inijligi, milliy tabiati bo'ladi. Lisoniy bu o'ziga xoslik har qanday so'z-u har qanaqa ifoda tarzini qabul qilavermaslikda yoki o'ziga moslab qabul qilishda ko'rinadi. Til shunisi bilan tirik” (Isomiddinov Z. O'zbek tilining milliy tabiati. – T.: Bayoz, 2025. – B.37.).

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, ruscha ism-familiyalarda qo'llanadigan *Ee* harfini o'zbek lotin alifbosida aks ettirish – transliteratsiya qilish ma'lum bir lisoniy tayyorgarlikni taqozo etadi. Demak, bunday leksemalarni lotinchaga o'girishda faqatgina kompyuter dasturlariga tayanib bo'lmaydi. Binobarin, *Ee* harfli ruscha ism-familiyalar o'zbek lotin alifbosida 6 xilda: *e, ye, eye, 'i, yo, o* shaklida o'girilishini yodda tutish zarur. Aks holda tovush va harflarning o'zaro mosligi – orfografik simmetriya ta'minlanmaydi, jonli o'zbek tiliga mos orfogrammalar yuzaga kelmaydi.

Ёё ga yondosh lotincha
harflarni bilamizmi?

Ruscha ism-familiyalar orasida *Ёё* harfli leksemalar ham talaygina. Masalan, *Золотарѐв, Кисилѐв, Королѐв, Муравѐв, Парфѐнов, Понамарѐв, Рублѐв, Селезнѐв* kabi familiyalar *ѐ* harfi bilan yoziladi. Odatda, *ѐ* harfi o'zbek tilida [й+о] tarzida aytiladi hamda o'zbek lotin alifbosida *yo* shaklida beriladi. Ayni shu qoida asosida o'giriladigan bo'lsa, *Zolotaryov, Kisilyov, Korolyov, Muravyov, Parfyonov, Ponomaryov, Rublyov, Seleznyov* orfogrammalarini yuzaga keladi. Nazarimizda, yuqorida ko'rsatib o'tilgan familiyalarining shu taxlitda yozilishi o'zini oqlaydi. Chunki bunday orfogrammalar o'zbeklarning jonli talaffuziga mos keladi, hozirga qadar mavjud aytilish saqlab qolinadi. Biroq ayni shu orfogrammalar orasida *Кисилѐв, Королѐв, Рублѐв* kabi, tarkibida *л* harfi bo'lgan, aniqrog'i, so'zning o'zagi [л] tovushi bilan tugagan familiyalar ham bor. Ular orasida *Королѐвни, ѐ* harfi alohida bo'g'inida ishtirok etgani uchun, lotincha imlodagi *yo* shaklida berilishi o'rinli bo'ladi: *Ko-rol-yov*. Ammo *Kiselѐв* va *Rublѐв*dagi *ѐ* masalasi biroz munozarali ko'rinadi. Chunki mazkur familiyalardagi *ѐ* harfi 2 xilda aytilishi mumkin: [кисилиѐв], [кисилов], [рублийов], [рублов]. Ayni mana shu talaffuzlardan kelib chiqiladigan bo'lsa, *Kisilyov* yoki *Kisilov, Rublyov* yoki *Rublov* shaklidagi orfogrammalar yuzaga keladi. Nazarimizda, *Kisilyov* va *Rublov* shaklidagi yozuvlar orfoepik va orfografik nuqtayi nazardan bir-biriga yaqin keladi. Chunki *Kisilyov*dagi [й] tovushi alohida bo'g'inni tashkil qilmoqda: *Kisil-yov. Rublѐв*dagi *ѐ* esa o'zidan oldingi tovush – [л]ning yumshoqroq aytilishiga ishora qilmoqda.

Ee harfli ruscha familiyalar haqida gapirganda *Xrushchev, Sichev, Fomichev, Tolkachev, Tkachev, Grachev* kabi orfogrammalar to'xtalib o'tilgan edi. Rus tilida ayni shu familiyalar *ѐ* harfi bilan ham yozilishi mumkin: *Xrushchѐv, Sichѐv, Fomichѐv, Tolkachѐv, Tkachѐv, Grachѐv* kabi. Bunday leksemalar o'zbek lotin alifbosida qay tarzda berilishi lozim? Nazarimizda, xuddi *Ee* harfli fonemalar imlosida to'xtalib o'tilganidek, yuqorida zikr etilgan familiyalar ham o'zbeklar jonli nutqiga mos tarzda, ya'ni *Xrushchov* [хрушчов], *Sichov* [сичов], *Fomichov* [фомичов], *Tolkachov* [толкачов], *Tkachov* [ткачов], *Grachov* [грачов] tarzida berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. *Ерѐмин* tipidagi familiyalarni esa *Yeromin* shaklida yozish to'g'ri bo'ladi. Chunki ayni shu ko'rinishda [йеромин] tarzidagi talaffuz yuzaga kelib, aytilish va



YANA BIR MUAMMO: famiiliyalar imlosi

yoziilish oʻrtasida mutanosiblik taʼminlanadi. Mabodo *Yeryomin* koʻrinishida, yaʼni *y* harfi bilan berilsa, u holda [йерёмин] kabi oʻngʻaysiz bir aytilish yuzaga kelib, manba tildagi talaffuzdan ham uzoqlashib ketadi.

Zyuganov toʻgʻri shakli?

Biz qarab chiqayotgan ruscha ism-familiyalar orasida *Юю* harfli soʻzlar ham mavjud. Yuqorida koʻrsatib oʻtilganidek, *Юю* harfi oʻzbek lotin alifbosida 2 xil usulda beriladi: 1) *yu* – iyun (июнь), iyul (июль), yurist (юрист); 2) *u* – budjet (бюджет), sujet (сюжет) va hokazo. Demak, [й+у] tovushlarini ifodalashda *yu*, oʻzidan oldingi tovushning yumshoqligini koʻrsatgan holatda *u* harflari qoʻllanadi. Ayni shu qoidaga muvofiq holda ruscha ism-familiyalardagi *ю* harfini ham 2 xil usulda berish mumkin boʻladi. Masalan, *Юрий, Юлия, Юдахин* kabi antroponimlar *Yuriy, Yuliya, Yudaxin* tarzida yoziladi. Chunki ayni shu orfogrammalar *Юю* harfining soʻz boshida ikki tovushni ifodalab kelgani hamda alohida bir boʻgʻinni tashkil etgani koʻrinib turadi: [йу-рий], [йу-ли-я], [йу-да-хин].

Keltirilgan misollarda *ю* harfining *yu* tarzida berilishi oʻzini toʻliq oqlaydi, chunki ular xuddi oʻzbekcha *yuk, yuklama, yuqori, yutuq, buyuk, quyuq* soʻzlari kabi har doim *yu* shaklida oʻgiriladi. Biroq soʻz oʻrtasida, undoshdan keyin kelgan holatlar biroz munozarali boʻladi. Masalan, *Zyuganov, Biryukov, Lyubarev, Lyubov, Lyudmila* singari ism-familiyalarda *ю* harfi qay tarzda oʻgiriladi: *yu* shaklida yoziladimi yoki *u* tarzida transliteratsiya qilinadi? Hozirga qadar bosib chiqarilgan ayrim nashrlarda *Zyuganov, Biryukov, Lyubarev, Lyubov, Lyudmila* koʻrinishidagi orfogrammalar uchraydi. Ayni shu shakllarni orfografik jihatdan toʻgʻri deb hisoblash mumkinmi? Buning uchun ularning transkripsion varianti va boʻgʻin tuzilishi bilan tanishish kifoya: [зйу-га-нов], [бир-йу-ков], [лйу-бар-сев], [лйуд-ми-ла]. Koʻrinadiki, yuqoridagi antroponimlar bu taxlitda aytilmaydi va bunday boʻgʻin tuzilishiga ega boʻlmaydi. Mazkur orfogrammalar bitta *y (ü)* harfining ortiqchaligi sezilib turibdi. Shunday ekan, yuqorida zikr qilingan familiyalarining oʻzbek lotin alifbosida *Lubarsev, Lubov, Lyudmila* shaklida yozish oʻrinli boʻladi. Bizningcha, *Zyuganov, Biryukov* tipidagi familiyalar ham ana shu taxlitda transliteratsiya qilinishi, yaʼni *Zuganov, Birukov* shaklida yozilishi kerak. Agarda ular *Zyuganov, Biryukov* shaklida yozilsa, quyidagi talaffuz va boʻgʻin tuzilishi yuzaga keladi: [зйу-га-нов], [бир-йу-ков]. Bu esa oʻzbek tili fonetikasi meʼyorlariga zid boʻladi.

Юю harfli ruscha familiyalardagi yana bir nozik holatga eʼtibor berishga toʻgʻri keladi. Masalan, *Илюшин, Илюхин* kabi familiyalardagi *ю* harfi ham, aslida, oʻzidan oldingi tovushni [ль] tarzida yumshoqroq aytishga xoslangan. Shu sababli ham ularni *Pushin, Pluxin* shaklida yozish mumkin. Agar shu shaklida yoziladigan boʻlsa [и-лу-шин], [и-лу-хин] tarzidagi talaffuzlar yuzaga keladi. Nazarimizda, mazkur leksemalarda qoʻllangan *ю* harfi 2 vazifa bajarmoqda: ham oʻzidan oldingi tovush-[л]ning yumshoqligini koʻrsatib, ham alohida boʻgʻinni tashkil qilmoqda. Shunday ekan, mazkur leksemalar *Plushin, Pluxin* shaklida yozilishi maqsadga muvofiq koʻrinadi. Chunki ayni shu shakllarda ruscha familiyalarining asl talaffuzi saqlanib qoladi, oʻzbeklar nutqiga mos aytilish yuzaga keladi hamda boʻgʻinlar miqdorida ham moslik paydo boʻladi, oʻzbek lotin alifbosining grafik imkoniyatlari toʻliq namoyon boʻladi: *Il-yu-shin, Il-yu-xin*.

Поляк soʻzi va Поляков familiyasi orasidagi farq

Biz tahlil qilayotgan leksemalarning salmoqli qismini *Яя* harfli familiyalar tashkil etadi. Bular orasida ham oʻziga xos orfografik yondashuvni taqozo etadigan holatlar anchagina. Ayni paytda ulardan ayrimlari ancha munozarali. Binobarin, bunday antroponim va toponimlarni, boshqa “yolashgan unlilar”da uchramaydigan tamoyillar asosida yozishga toʻgʻri keladi. Masalan, *Рябов, Брянск, Брянцев* kabi leksemalar *y+a* harflari bilan oʻgiriladi: *Ryabov, Bryansk, Bryansev*. Negaki, ayni shu holatda manba tildagi talaffuz ham saqlanadi, tovush va harflarning mutanosibligi taʼminlanadi. Agarda mazkur leksemalarda *y* harfi yozilmasa, yaʼni *Rabov, Bransk, Bransev* shaklida qayd etilsa, ular quyidagi tarzda talaffuz etiladi: [рабов], [бранск], [бранцев]. Koʻrinib turibdiki, bunday tipdagi soʻzlarda albatta *y* harfi yozilishi lozim.

Yuqorida qayd etib oʻtilganidek, xorijiy soʻzlarni yozishda, asosan, transliteratsiya yoki transkripsiyadan

foydalaniladi. Bizningcha, ruscha antroponim va toponimlarni yozishda ham mana shu ikki usuldan oʻrinli va unumli foydalana olish lozim. Chunki bir qator ruscha ism-familiyalar va joy nomlarining tahlili shuni koʻrsatadiki, bunday leksemalarni har doim ham manba tildagi shakldan harfma-harf oʻgirish oʻzini oqlamaydi. Masalan, rus tilidagi *Вишняков, Мецераков, Пермяков, Поздняков, Поляков, Чистяков* kabi familiyalarda *я* harfi qoʻllanadi. Maʼlumki, *я* harfini oʻzbek lotin alifbosida 2 xil shaklda: *ya* yoki *a* tarzida oʻgiramiz. Jumladan, *январь, яшик, ярус* soʻzlari *yanvar, yashik, yarus* shaklida – *ya* harfi bilan oʻgirilsa, *сентябрь, октябрь* leksemalari esa *sentabr, oktabr* koʻrinishiga ega boʻladi. Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan *я* harfli ruscha familiyalar mazkur qoida asosida oʻgirilsa quyidagi orfogrammalar yuzaga keladi: *Vishnyakov – Vishnakov, Mesheryakov – Mesherakov, Permyakov – Permakov, Pozdnyakov – Pozdnakov, Polyakov – Polakov, Chistyakov – Chistakov*.

Endi ayni shu orfogrammalarining transkripsiyasi bilan tanishib chiqamiz. Bunda quyidagi holat namoyon boʻladi: [вишньаков], [вишнаков], [мешерйаков], [мешераков], [пермйаков], [пермаков], [позднйаков], [позднаков], [полйаков], [полаков], [чистйаков], [чистаков]. Xoʻsh, ulardan qaysi birini toʻgʻri orfogramma deb hisoblash mumkin? Transkripsiyada koʻrsatib oʻtilgan talaffuzlardan birortasini ham, bizningcha, toʻgʻri orfogramma deb boʻlmaydi. Negaki, rus tilida ham, hozirgi oʻzbek tilida ham *Поляков* familiyasi *Polyakov* [полйаков] yoki *Polakov* [полаков] tarzida aytilmaydi. *Поляков*, odatda, [полеков] tarzida talaffuz qilinadi. Faqatgina millat nomi sifatida *поляк* soʻzi [полйак] tarzida aytiladi. Mana shu real vaziyatdan kelib chiqqan holda oʻzbek lotin alifbosida ham *Polekov* shaklida berish maqsadga muvofiq koʻrinadi. Ayni shu qoida asosida yoziladigan boʻlsa, *Vishnekov, Mesherekov, Permekov, Pozdnekov, Chistekov* shaklidagi orfogrammalar yuzaga kelib, manba tildagi talaffuz ham saqlanib qoladi.

Biz taklif etayotgan mazkur tavsiyaga ayrim eʼtirozlar boʻlishi, *Vishnyakov, Mesheryakov, Permyakov, Pozdnyakov, Polyakov, Chistyakov* shaklida yozish tarafdorlari topilishi mumkin. Nazarimizda, bunday oʻrinlarda subyektiv qarashlar emas, balki mavjud lisoniy vaziyat, ona tilimizning manfaati hisobga olinishi zarur. “Holbuki, dunyoning hamma xalqlari chetdan kirgan soʻz va atamalarini oʻz tiliga moslashtirib talaffuz qiladi, shunday yozadi ham. Arablar gavharni javhar, Chochni Shosh deydi, chunki toʻgʻrisini aytishga tili kelishmaydi. Biz esa, nima uchundir, qaysi tildan soʻz olar boʻlsak, oʻshanga moslashga urinamiz, bu orada ona tilimiz xossalari poymol boʻlib ketayotgani bilan ishimiz yoʻq” (Isomiddinov Z. Oʻzbek tilining milliy tabiati. – T.: Bayoz, 2025. – B.37.).

Яя harfli ruscha antroponim va toponimlar haqida soʻz yuritganda *Рязань* toponimi bilan bogʻliq orfografik holatga alohida toʻxtalib oʻtishga toʻgʻri keladi. Chunki bu tipdagi soʻzlar transliteratsiyasi ancha murakkab boʻlib, oʻziga xos yondashuvni talab qiladi. Masalan, *Рязань* oʻzbek lotin alifbosida 4 xil shaklda berilishi mumkin: *Ryazan, Ruzan, Rezan, Rizan*. Mana shu toʻrt orfogramadan qaysi birini toʻgʻri deb hisoblash lozim? Bizningcha, bunday holatlarda yana bir bor ularning aytilishiga – transkripsion holatiga murojaat qilishga toʻgʻri keladi: [рйазан], [разан], [резан], [ризан]. Mazkur talaffuz namunalaridan dastlabki ikkitasi: [ryazan] va [razan] tarzida aytish manba tilda ham, oʻzbek adabiy tilida ham uchramaydi, shu sababli ham *Ryazan, Ruzan* shaklidagi orfogrammalar oʻzini oqlamaydi. Keyingi ikkitasi: [резан] va [ризан] talaffuzi jonli talaffuzga ancha yaqin. Nazarimizda, *Рязань* toponimining oʻzbek lotin alifbosida *Rezan* shaklida berilishi maqsadga muvofiq boʻladi. Ayni shu toponim asosida yuzaga kelgan *Рязанцев* familiyasini ham *Rezansev* shaklida yozish oʻrinli boʻladi.

Ayni paytda taʼkidlash oʻrinliki, *Яя* harfli ayrim familiyalarni lotinchaga transliteratsiya qilishda munozarali holatlar, bahsli oʻrinlar ham uchraydi. Jumladan, *Овсянников, Звягинцев* familiyalaridagi *я* harfini toʻgʻri aks ettirish masalasini chuqurroq oʻylab koʻrish lozim. Chunki mazkur leksemalar lotincha imloda ikki xil shaklda yozilishi mumkin: *Ovsyannikov – Ovsannikov, Zvyaginsev – Zvaginsev*. Xoʻsh, koʻrsatib oʻtilgan orfogrammalarining toʻgʻri yechimi qanday boʻladi? Nazarimizda, bunday tipdagi familiyalar toʻplanib, orfoepik va orfografik jihatdan jiddiy tahlil qilinishi, lozim boʻlsa jamoatchilik muhokamasidan oʻtkazilishi, shundan keyingina toʻgʻri variant tavsiya qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Щ, щ, ы harfli ayrim familiyalar imlosi

Ruscha ism-familiyalardagi orfografik muammolar faqat “yolashgan unlilar” ishtirok etadigan soʻzlarda emas, balki *yumshatish belgisi* – *ь* va *щ, щ, ы* harfli ayrim familiyalarda ham uchraydi. Masalan, *Львов, Ельцин* kabi ruscha familiyalar *ь* belgisi bilan yoziladi. Lekin ularning lotinchada yozilishi bir xil emas. Chunki *ь* belgisi yumshoq fonemani ifodalagani bois *Ельцин* kabi soʻzlarda tushib qoladi, yaʼni yozuvda aks etmaydi: *Yelsin*. Biroq *Львов* leksemasida esa mazkur belgi oʻrnida *i (u)* harfini qoʻllash zarur boʻladi. Mana shundagina *Livov* shaklidagi orfogramma yuzaga kelib, oʻzbek tili grafikasiga mos boʻlgan boʻgʻin tuzilishi ham paydo boʻladi: [ли-вов].

Ruscha familiyalar orasida *щ* harfi bilan yoziladigan leksemalar ham mavjud. Masalan, *Гущин, Радищев, Хрущёв* va shu kabilarning transliteratsiyasi ham oʻziga xos. Chunki mazkur familiyalarda qoʻllangan harf – *щ* harfini lotincha imloda bir xilda berib boʻlmaydi. Yuqorida *Ee* harfli leksemalar haqida soʻz yuritganda *Хрущев* familiyasining yozilishi boʻyicha maʼlumot berilgan hamda mazkur familiya oʻzbek lotin alifbosida *Xrushchov* shaklida berilishi tavsiya qilingan edi. Nazarimizda, *Хрущёв* tipidagi soʻzlarni ham ayni oʻsha taxlitda, yaʼni *Xrushchov* shaklida berish oʻrinli boʻladi. Xuddi ayni shu tamoyil asosida *Радищевни Radishchev* shaklida yozish ham oʻzini oqlaydi. Ammo *Гущин* familiyasini lotinchaga oʻgirishda alohida bir yondashuv zarur boʻladi. Negaki, yuqoridagi familiyalarda *щ* harfi oʻzbek lotin alifbosida *sh* va *ch* harflar birikmasi bilan ifodalanishi aytib oʻtiladi. *Гущин* familiyasini ham oʻsha taxlitda oʻgiradigan boʻlsak, *Gushchin* orfogrammasi yuzaga kelib, quyidagi talaffuz va boʻgʻin tuzilishi paydo boʻladi: [гуш-чин]. Bizningcha, *Gushchin* shaklidagi orfogramma til amaliyotida noqulaylik keltirib chiqaradi: oʻzbeklar nutqiga unchalik mos boʻlmagan aytilish sodir boʻladi. Ayni paytda manba tildagi talaffuzdan ham ancha uzoqlashib ketamiz. Shunday ekan, *Гущин* tipidagi leksemalarni lotincha imloda *Gushshin* shaklida, ikki *sh* bilan berish maqsadga muvofiq koʻrinadi. Bu holatda [гуш-шин] kabi aytilish sodir boʻladi. Mazkur orfogrammada ikki til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undosh-[ш]ning yonma-yon qoʻllanishi oʻzbeklar nutqida gʻalizlik tugʻdirmaydi. Chunki bizda *mashshoq, qashshoq, ushshoq* va shu kabi soʻzlar talaffuzida maʼlum bir koʻnikmaga egamiz. Shu sababli ham *Gushshin* kabi yozilishlar va [гушшин] kabi aytilish ancha qulayligi bois ularning oʻzbek tiliga oʻzlashib ketishi osonlashadi.

Цц harfli ruscha familiyalarni lotinchaga oʻgirishda jiddiy bir orfografik muammo yuzaga kelmaydi. Masalan, *Левциц, Заец, Ельцин, Брянцев* kabi familiyalar, odatda, bir *s* harfi bilan yoziladi. Chunki soʻz oxirida yoki soʻz oʻrtasida undosh tovushdan keyin kelgan *ц* harfining lotinchada birgina s xarphi bilan berilishi qoidashtirilgan. *Кормилицын* tipidagi familiyalarda esa *ц* harfi soʻz oʻrtasida ikki unli qurshovida turgani sababli ularni *ts* bilan *Kormilitsin* shaklida yozish toʻgʻri boʻladi. Shunday ekan, yuqorida zikr etilgan ruscha familiyalar oʻzbek lotin alifbosida *Levshis, Zayes, Yelsin, Bryansev, Kormilitsin* shaklida berilishi orfoepik va orfografik jihatdan toʻgʻri boʻladi.

Ruscha ism-familiyalarda qoʻllanadigan *ы* harfining oʻzbek lotin alifbosida *i* harfi bilan berilishi oʻrinlidir. Mana shu asosda *Лыков, Кормилицын, Крылов, Крысин, Порывай, Сычёв, Цымбал* kabi familiyalarni lotincha imloda *Likov, Kormilitsin, Krilov, Krisin, Porivay, Sichov, Simbal* shaklida yozish orqali toʻgʻri orfografik yechimga ega boʻlamiz.

Maʼlum boʻladiki, ayrim ruscha antroponim va toponimlarni oʻzbek lotin alifbosida toʻgʻri aks ettirish uchun maʼlum bir nazariy tayyorgarlik, rus va oʻzbek tili fonetikasi qoidalarini puxta oʻzlashtirish, ayniqsa, “yolashgan unlilar” – *е, ё, ю, я* harflarining rus tilida va oʻzbek kirill yozuvidagi vazifalaridan yaxshi xabardorlik talab etiladi. Ayrim bahsli, munozaraga sabab boʻladigan holatlarni jamoatchilik fikridan oʻtkazib olish ham foydadan holi boʻlmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ruscha ism-familiyalarni toʻgʻri aks ettirish: tugʻilganlik haqidagi guvohnomadan boshlab attestat, diplom, fuqarolik pasporti – ID kartalar, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, xizmat guvohnomalari va hokazolarni oʻzbek lotin alifbosida toʻgʻri yozish – kundalik yozuv amaliyotidagi muhim vazifalardan sanaladi. Buning uchun bunday ism-familiyalarni toʻliq toʻplash, ularni orfoepik va orfografik jihatdan tahlil qilish, zarur oʻrinlarda mutaxassislar koʻrigidan va jamoatchilik muhokamasidan oʻtkazib, lugʻat-maʼlumotnomalar tayyorlab fuqarolik holatini qayd qilish boʻlimlari – FHDYO va ichki ishlar organlari xodimlariga tavsiya etish zarur.

Ravshan JOMONOV,
Oʻzbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori,
filologiya fanlari nomzodi

Soʻz koʻrki

TARJIMADA YUKLAMALARNING QOʻLLANILISHI



Turli janrga mansub asarlar tarjimasida boshqa til hodisalari qatori yuklamalar ham muhim ahamiyatga ega. Bu ayniqsa asar qahramonlari nutqida sezilarli namoyon boʻladi. Sababi, yuklamalar aynan soʻzlashuv uslubiga xoslanganligi, gapga qoʻshimcha maʼno boʻyogʻi bera oladigan ogʻzaki nutq birligi ekanligi bilan boshqa leksik-grammatik birliklardan ajralib turadi.

Aksariyat yuklamalar maʼno koʻlamining kengligi, yaʼni turli maʼnoviy tovlanishlarga egaligi baʼzan tarjimada noaniq, mavhum holatlarni yuzaga keltiradi. Bunday birliklarda maʼno ayrim hollarda kontekstual – maʼnosi butun bir matn mazmuniga bogʻliq boʻladi. Masalan, asar qahramoni nima demoqchiligini tushunish uchun tarjimondan ungacha boʻlgan vaziyatni chuqurroq tahlil qilish va shu vaziyatdagi ruhiy holatni his qilish talab etiladi. Bu oʻrinda faqat bilim emas, ichki tuygʻu ham muhim. Biroq shunday holatlar bor-ki, ularni tarjima qilishning iloji yoʻq. Sababi, ular faqat shu millatga xos ruhni ifodalaydi. Nemis ziyolisi Mariya Ebner Eshenbax aytganidek, “*Tilning ruhi tarjima qilib boʻlmaydigan soʻzlarda aniqroq aks etadi*”.

Kishi ismlarini bir tildan ikkinchi tilga transliteratsiya usulida talqin qilish mumkinligini tarjimon olimlarimiz aytib oʻtgan. Oʻzbek tilida *-da, -mi*, turk tilida *ki, ya*, qirgʻiz tilida *ele, bele, ayabay* kabi birliklar polisemantik xususiyatga ega boʻlib, ularning ikkinchi tildagi tarjimasini, vaziyat taqozosiga koʻra amalga oshirilsa, baʼzan umuman tarjima qilinmaydi. Masalan, qirgʻiz tilidagi *ayabay* yordamchi birligi ham “*ayab oʻtirmasdan*” maʼnosida ishlatiladi, ham sifat va feʼl turkumidagi soʻzlarga qoʻshilib, “*juda, haddan ortiq, oʻta*” maʼnolarida belgi-xususiyatning darajasi (*ayabay akilduu/juda aqlli, ayabay kari/juda qari, ayabay jakti/juda yoqdi*)ni bildiradi. Ogʻzaki nutqimizda koʻp uchraydigan piching, ensasi qotishlik maʼnosidagi “*Axiy-ri kelibsan-da?*...” konstruksiyasini olaylik. Bir vaqtning oʻzida bu gapda bir necha maʼno boʻyogʻini ilgʻash mumkin. Unda birinchi koʻzga tashlanadigan soʻroq, piching maʼnosidan tashqari, umidsizlik, tushkunlik, ilojsizlik, taassuf ifodalari mavjud. Oʻz navbatida, bu gap qanday intonatsiyada aytilayotganligiga eʼtibor qaratish lozim. Gapdagi muddaoni anglash uchun undagi xayrixohlik yoki ziddiyat, ohang, qoniqlik yoki xafalik, gʻamginlik, qahr-gʻazab kabi tuygʻularni ajrata olish tarjimaning asosiy belgisi sanaladi. Bir gapni turli ohangda aytish orqali undagi maʼno boʻyogʻini oʻzgartirish va tilimizdagi *olding-a, bordingmi, koʻrdingmi*,

sen-a tipidagi yoki turk tilidagi *güzel ya, bak ki, gitmemiş de*, qirgʻiz tilidagi *sen ele, oshol ele, qantıyp yele, ayabay biyik* singari yuklamali juda koʻp konstruksiyalarni maʼnoviy voqelanishi jihatdan uzoq tahlil qilish mumkin. Aynan shu qoidaga boʻysunuvchi konstruksiyalarning ikkinchi tildagi muqobilini bunday soʻzlar bilan birga kelgan yuklamaning kontekstual maʼnosidan kelib chiqib yoki maʼno jihatdan mos ekvivalentini topib tarjima qilish maqsadga muvofiq.

Ayrim hollarda yuklamalarni tarjima qilish oʻrinsiz. Chunki bunda maʼnoning buzilishi, vaziyat va holatga umuman toʻgʻri kelmaydigan noaniqlik, mavhumlik hosil boʻlishi

mumkin. Yuqorida taʼkidlanganidek, har bir xalqning tarjima qilinmas mulki – iboralari, ismlari boʻlib, uni oʻz holida tarjima qilishning imkoni yoʻq. Bu holatda uning mumkin qadar maʼnosi, xarakter xususiyatlariga yaqin hayotiy muqobilini topa olish, shu maʼnoni yetkazib berishning boshqacha usul va shakllarini qoʻllash yoki baʼzan umuman tarjima qilmaslik va oʻz holicha qoldirish toʻgʻriroq boʻladi. Masalan, mashhur ertak qahramonlari *Rozochka va Belyanochkani Oq gul, Qizil gul*, multfilm qahramoni *Peachni Shaftoli, Zolushkani Kuloyim*, kinofilm qahramoni *Fan-fan Tyulpanni Fan-fan Lolagul* deyish qanchalik gʻalib boʻlsa, *Belosnejkada Oppogʻoy, Krasnaya Shapochkada Qizil Shapchacha* tarzidagi mutanosiblikni saqlash, *Buratino, Gulliverni* esa shu holicha qoldirish mutlaqo toʻgʻri boʻladi. Yuklamali konstruksiyalarda shu birlikning muqobilini aniqlash qiyin. Aynan turkiy til boʻlgan qirgʻiz tilida bu yaqqol seziladi. Masalan,

yuklama funksiyasiga ega *ele* shakli bu tilda keng semantikasi bilan ajralib turadi. U tilda chegaralash, aniqlov, taʼkidlash, kuchaytirish va hokazo maʼnolarga ega. Biroq bu yuklama ishtirokidagi gaplar deyarli ushbu birliksiz tarjima qilinadi: *oshol ele kyny (shu kuni), oshol ele jerde (oʻsha yerda), oshol ele bette (shu betda), yydo ele bolom ((men) uyda boʻlaman) va boshqalar*. Yoki turk tilida bunday yordamchi birliklar tilning sintaktik qonuniyatlariga boʻysunsa-da, tarjima jarayonida ishtirok etmaydi. Masalan, nimaningdir qadr-qimmatini, kamyobligini ifodalash uchun ishlatilgan konstruksiyani olaylik: *Istanbulda bir nūshası daha yok*. Bu gap *Istanbulda boshqa nusxasi yoʻq* shaklida tarjima qilinadi. Agar gapni soʻzlar tartibi boʻyicha tarjima qil-sak quyidagicha boʻladi: *Istanbulda bir nusxasi yana (hali) yoʻq*. Chunki *daha* yordamchi birligi yoki yuklamasi turk tilida “*yana*”, “*yana-da*”, “*hali*”, maʼnolarida taʼkid va kuchaytiruv ifodalaydi, yoki bir soʻzi bilan kelganda *bir daha* tarzida “*boshqa*”, “*ikkinchi marta*” maʼnolarida xayrixoh emaslikni, xatti-harakatidan pushaymonlik va tahdidni ifodalagan holda ayrim gaplarda qoʻllaniladi (*–Bir daha gitmem! – (Boshqa) Ikkinchi marta bormayman!*). Bunday soʻzlar yoki birliklar qatorini shu tarzda davom ettirish mumkin. Biroq muhimi, ularning qoʻllanilish doirasi, oʻrni, uslubini bilishdir.

Tarjima asliyat boʻla olmasligi tabiiy, ammo uni asliyatga yaqinlash-tirishning oʻzi buyuk xizmat. Balki tarjima asliyatdan koʻra jozibali va betakror boʻlib tugʻilar? Baʼzan sheʼriyatda bunga guvoh boʻlamiz. Bu borada ingliz faylasufi Jozef Jeykobsning “Poeziyani tarjimada oʻqish – ayol kishining yuzini harir parda ortidan oʻpishdek gap”, degan fikrini rad qilishga toʻgʻri keladi. Axir asarda taʼsirchanlikni taʼminlay olgan, insoniy tuygʻular, hissiyotlarni maromiga yetkazib ifodalay olgan, eng kichik detallarni ham koʻzdan qochirmagan tarjima muvaffaqiyatga erishishi tabiiy. Nimanidir tarjima qilishdek zalvorli maqsadni amalga oshirish uchun dastlab oʻz ona tilimizning lisoniy boyligini, uning leksik, grammatik, uslubiy qonun-qoidalarini chuqur oʻzlashtirishimiz, bu yoʻlda maktab yaratib ketgan zabardast ustozlar tajribasidan xabardor boʻlishimiz, zamonaviy bilimlar asosida ularni yanada toʻldirishimiz, sayqal berishimiz zarur.

Dostonbek ABDURAHMONOV,
SamDAQU “Oʻzbek tili va adabiyoti”
kafedrası uslubchisi

Savod haqida savol

Pochtadan xat olmay qoʻyganimgan beri imlo qoidalarini faqat ilmiy ishlarda saqlanib qoldimikan, deb oʻylanaman. Nega deganda, doʻst-u ulfatlar bilan tarmoq-u messenjerlar orqali xabarlashganimizda harflarning oʻrin almashishi-yu tushirib qoldirishlar urfga kirib, yangilik boʻlmay qoldi. Adabiy tilda imlo qoidalarini bilan yozsangiz, hayron qolishadi, goʻyoki zamondan orqada qolib ketgan-mishman. Hayhot. Aslida imlo odamning saviyasini ham belgilab beradi desak, mubolagʻa emas. Nega ular saviyasizmi? Javobga shoshmay turaylik. Tanga-ni ikkinchi tomoni ham bor. Ehtimol, vaqtni tejamoqchi boʻlishar. Lekin bu bilan oʻzini oqlab boʻladimi? Shunday ham tarmoqlarda umrimiz “yonyapti-ku”! Toʻgʻri yozishga ketadigan bir-ikki soniya nima degan gap?

Misol uchun bir suhbatni keltiraman. Suhbat lotin yozuvida boʻlgandi:

– Assalomu alaykum, Xoltoʻra yaxshimisan?

– Waleykum, 6zing qaleysan, iwlaring 46tikimi...”.

Nima deb oʻylaysiz, Xoltoʻra nima dedi? Uning “alifbo”sini koʻrsataman:

W – Sh

4 – Ch

6 – Oʻ

Bu qisqacha misol. Oʻzi lotin-u kirill muammosi toʻliq yechimini topmay, zi-yoli qatlamni xunob qilayotgan bir paytda, bu “yangi” alifbo qachon urfga kir-di? Aslida toʻgʻri yozish uchun odam maʼlum maʼnoda fikrlashi, tafakkur qilishi kerak. Fikrlashdan qochilyaptimi? Ehtimol erinchoqlikdir. Bu bilan nimaga erishiladi? Menimcha zararga ishlasa ishlaydiki, aksi boʻlmaydi.

Matematikada raqamlar bilan harflarni aralashtirib, masalalar tuziladi va yechiladi. Taassufki, endilikda raqamlar va harflar ishtirokida matn tuzilyapti. Zamon zayli degani shudir-da! “Isloh” degani shunchalik boʻlar-da!

Yoshi kattalarning eng “ikkichi”sining ham savodi yaxshi ekaniga guvoh boʻlamiz. Ehtimol, avvallari qoʻlda yozilgani uchun ham ahvol yaxshi boʻlgan-dir, degan oʻy oʻtadi. Endi zamon rivojlanganini “oqsoqligimiz”ga bahona qilib boʻlmaydi-da! Balki muhitning taʼsiri kattadir. Koʻplar “yangi” alifbodan foydalanayotganda, sen adabiy til qoidalariga mos yozib oʻtirsang, albatta, gʻalati-da! Koʻpga ergashishga majbursan. Avvallari koʻpchilik savodli boʻlgan. Endi esa... Taraqqiyot har tomonlama insonni rivojlantirishi kerak, aslida. Bizda – teskarisi!

“Nezashto kasod boʻldim”, “Hayotim **bardak** boʻp ketdi” kabi “yevrooʻzbek tili” shakllangani kamlik qilganidek, endi “yalqovona alfavit” muomalaga kirayot-gani odamni tashvishga soladi.

Qush uyasida koʻrganini qiladi! Xullas, hozirgi eʼtiborsiz avlod farzand-larining holi ne kechadi? Aslida, bu virusga aylanib boʻldi. Buning davosi, albatta, erinmaslik va fikrlash vaksinasidir.

Zikrilla MAMATOV

Sinab ko'ring

“Q” va “G”

(1-sinf ona tili fanidan bir soatlik ochiq dars ishlanmasi)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: undosh tovush va harflarni o'rganish. “Q” va “G” qanday tovush ekanligini bilish.

Tarbiyaviy: ona tilining nutqdagi ahamiyatini o'rganish.

Rivojlantiruvchi: chiroyli yozuv, diqqatni jamlash, fikrlarni tinglash, nutqning ravonligi, gap-so'zdagi harflarni aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars metodi: suhbat, “Tushib qolgan harfni qo'y”, “Harfni top”, “Yashiringan so'zni top”, “Baliq ovi” metodi, mashq yozish, savol-javob.

Dars jihozi: darslik, mavzuga oid ko'rgazmalar, rag'bat kartochkalari.

I. Darsning borishi:

Ustoz o'quvchilar bilan salomlashadi. O'quvchilar darsga kerakli o'quv qurollarini tayyorlaydi.

II. O'tgan mavzu bo'yicha savol-javob(uy vazifasini so'rash).

Uyga vazifa 45-betdagi 5-mashqni o'qib, nuqtalar o'rniga “j” harfini qo'yib yozish edi. Har bir o'quvchi daftari tekshirilib baholanadi, yozuvlariga e'tibor qaratiladi.

“Tushib qolgan harfni qo'y” mashqi bajariladi: mu...uk, si...ir, tu...a, n...n, ol...a, n...k, do'...t.

III. O'tilgan mavzuni umumlashtirib, yangi mavzu bilan bog'lash.

Bunda tezkor savollardan foydalaniladi:

1. Unli harflar nechta? – A, O, O', U, I, E.

2. Qaysi harf ikki tovush ifodalaydi? – J sirg'aluvchi va portlovchi.

3. Nechta harf birikmasi bor? – Sh, Ch, ng.

IV. Yangi mavzu bayoni.

Doskaga bugungi sana va mavzuni yozamiz. “*To'vushlarni aytamiz va eshitamiz, harflarni ko'ramiz, yozamiz va o'qiyamiz*” deb o'quvchilarga takroran ma'lumot beriladi.

Husnixat daqiqasi: o'quvchilar darslikdan 1-mashqni o'qib, topshiriqni doskada va daftarlariida bajaradi. **Rasm asosida nuqtalar o'rniga “q” va “g” harflaridan mosini qo'yib so'zlarni yozadi.**



Dam olish daqiqasi:

*Baliq kabi suzamyz,
Shamol kabi esamyz,
Biz bilag'on bo'lamiz,
Qushdek parvoz etamyz.*


“Harfni top” metodi. O'quvchilar bir qator bo'lib turadi, o'qituvchi o'quvchining orqasiga uchi yopilgan ruchka bilan birorta harfning bosma shaklini yozadi. O'quvchi orqasiga qaysi harf yozilganini doskaga bo'rib yozishi kerak. Navbatma-navbat har bir o'quvchi bu o'yinda ishtirok etadi.

Darslikdagi 2-mashqni bajaramiz:



*Sigirning bolasi buzoq. Qo'yning bolasi qo'zichiq.
Echkining bolasi uloqcha. Tuyanining bolasi bo'taloq.*

“Yashiringan so'zni top” metodida daraxt rasmi chizilgan plakat doskaga ilib qo'yiladi, unda qushlarning nomlari bo'g'inga bo'linib yozilgan, o'quvchilar hammasi taxtaga chiqib birgalikda qush nomlarini topadi: **bulbul, qaldirg'och, hakka, kakku, musicha.** Qaysi so'zlarda **“Q” va “G”** harfi ishtirok etganini aniqlaydi.



Darslikdagi 3-mashqni bajaramiz. Rasmlar o'rniga **quloq, ko'z, qo'l, oyoq** so'zlari yoziladi.

Mavzuni mustahkamlashda **“Baliq ovi”** metodidan foydalanamiz. Doskaning bir tomoniga dengiz rasmi ichida savol yozilgan baliqlar bo'ladi. O'quvchilar savollarga javob topib, doskaning ikkinchi tomonidagi akvarium rasmiga baliqlarni solishi kerak.




Savollar:

1. O'zbek tilida nechta harf bor?
2. “Q” harfi ishtirok etgan so'z aytning?
3. “Qulupnay” so'zini bo'g'inga bo'ling?
4. “G'oz” so'zida nechta harf, tovush, unli va undosh bor?
5. O'zbek tilida nechta tovush bor?

O'quvchilar bilimini baholash: darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarga rag'bat kartochkalari beriladi.



Uyga vazifa: darslikning 47-betdagi 4-mashq uyga vazifa qilib beriladi.



Darsni yakunlash.

Bugungi dars sizga yoqdimi? O'quvchilar fikrlarini bildiradilar. Tanaffusga chiqishga ruxsat beriladi.

Sanavar ABDURAHMONOVA,
Nukus shahridagi
38-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Munosabat

O'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tili ta'limi

O'zbek tili asosiy til sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda ikkinchi til, ya'ni o'zbek tili fani sifatida o'qitiladi. Mazkur fanning asosiy mazmun-mohiyati nutqiy va lingvistik kompetensiyalarning shakllanishi, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida fikrni og'zaki va yozma shaklda izchil bayon eta olish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbek tili ta'limi o'zga tilli o'quvchilarda badiiy ifoda qobiliyati, so'zlashuv etika-estetikasini muayyan shaklda yuk-saltiradi. Natijada o'quvchilarda adabiy tilimiz orqali milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz haqida tushuncha va taassurot shakllantiramiz.

O'zbek tilini o'qitish ta'limida yangi yutuq va taraqqiyot bosqichlari kuzatilsa-da, ayrim metodik muammo va kamchiliklar haqida gapirmasak bo'lmaydi. Avvalo, 2019-2020-o'quv yili boshida 8-9-sinflarning darsliklari yangilandi. Yangilangan o'zbek tili darsligiga e'tibor bersak, ko'plab matnlar va ular asosida lug'atlar berilganini ko'ramiz. Lug'atdagi ba'zi so'zlarni o'zimiz zo'rg'a topib, o'quvchilarga yetkazamiz. Lekin o'quv-

chilar bu lug'at so'zlarning ma'nosini qayerdan topishadi? Ularning izlanishlari uchun ham biror-bir darsliklarga asoslangan lug'atlar jamlanmasini yaratish vaqti kelmadimikan? Bundan tashqari, ta'lim berish jarayonida yana bir qancha muammolarga duch kelishimiz mumkin.

Hozir o'quvchilarda o'zbek tili faniga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada pasaygan. O'zbek tilini o'rganish va o'rgatish uchun asosiy va qo'shimcha mahsulotlar(video, audio, elektron doska, bosma qo'llanmalar)ning yetishmovchiligi, bilimni egallashga faqat yodlash, tinglab tushunishdan iborat jarayon sifatida qaralayotganini mazkur holatga dalil sifatida keltirish mumkin. Shuningdek, o'rganilayotgan mavzular yuzasidan

o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlariga kam e'tibor berilayotgani tarbiyalanuvchilarning fanga qiziqmasliklariga asosiy sabab bo'lmoqda.

Amaldagi o'zbek tili ta'limi mazmunida o'zbek xalqi madaniyati, tarixi, tili va urf-odatlarining yetarlicha ochib berilmagani o'quvchi yoshlarda kerakli nazariy va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Yana bir jihatni ta'kidlab o'tish joizki, ishlab chiqilayotgan darslik va qo'llanmalarda hozirgi zamon bolalarining hayoti va muammolari yoritilgan matnlarni o'rganishga e'tibor qilinmagan.

Ammo boshqa chet tillari kabi o'zbek tilini o'qitishning hamda o'quvchilarni fanga qiziqitirishning turli xil metod va uslublari mavjud. Har qanday izlanuvchan pedagog ishining samarali bo'lishi uchun ilm-fan yutuqlari va ilg'or tajribalardan erkin foydalanishi va o'quvchilarni fikrini erkin ifodalash metodlari va usullari bilan tanishtirib borishi zarur.

Ta'kidlash joizki, o'zbek tilini o'qitish metodikasi bo'yicha fan o'qituvchilari, metodist olimlar o'z tadqiqotlari yuzasidan erishilgan natijalar haqida ilmiy anjuman va konferensiyalarda pedagogik

o'qitish tizimi, zamonaviy dars namunalari haqida ma'lumotlar berishmoqda. Chunonchi, Namoz Rasulov va Ra'no Sayfullayeva kabi professor o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan metodik uslub hamda qo'llanmalar pedagoglar uchun yaxshi ilmiy qo'llanma hisoblanadi. Qolaversa, o'zbek tilini fan sifatida o'qitishda “4K” modelini ham ta'kidlab o'tish joiz. Mazkur model nazariy bilimlarni egallashdagi eng yaxshi usullardan biri hisoblanadi.

Yangi “4K” modeli o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, qarashlarini erkin bayon eta olishi, jamoaviy ishlash qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur tizim nafaqat darsliklar, balki amaliy mashg'ulotlarda ham innovatsion yondashuvni taqdim etadi. U kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy o'qituvchilar o'zbek tilini sifatli o'qitish uchun ta'lim jarayonlarini yangicha yondashuv asosida tashkil etishlari zarur.

Ulug'bek ALIMOV,
Angren shahridagi
13-maktabning o'zbek tili va adabiyoti
fani o'qituvchisi

Dolzarb mavzu



Atigi ikki yil oldin “O‘zbek tili tarixi. I. Eng eski chog‘lar” deb atalgan ilmiy izlanishimiz O‘zR FA “Fan” nashriyoti tomonidan chop etildi. Yaqin oylarda esa u qayta nashr qilindi. Kitobda turkiy tillarning bundan 2–2,5 ming yil oldin uchraydigan so‘zlariga to‘xtab o‘tilgan bo‘lib, bosh urg‘u O‘rxun-Enasoy bitiktoshlaridan oldingi chog‘larga qaratilgan, bitiktoshlar va undan keyingi turkiy tili yozma asarlar izlanishlari keyinga qoldirilgan edi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, kitobda turkiy tillar o‘tmishi to‘g‘risida so‘z borsa ham, uning “Turkiy tillar tarixi” deb nomlanmaganining o‘ziga xos sabablari bo‘lib, ushbu izlanishda qadimiy so‘zlarning turkiy tillar orasida o‘zbek tilida qay darajada saqlangani, ming yillar oldin boshqa turkiy tillardan ajralib chiqib, o‘z yo‘nalishida davom etgan “bulg‘or”, “xalach” tillari bilan tilimizning qanchalik yaqinligi masalalariga e‘tibor qaratildi. Shuning uchun bu kitob “O‘zbek tili tarixi” deb ataldi.

Kitobda tilimiz tarixi bo‘yicha shu paytgacha yozilgan o‘nlab monografiya, risola va darsliklardan farqli o‘laroq, turkiy tillar va uning qarindoshlari masalasi birmuncha keng yoritildi. Shuningdek, keyingi yillarda ilm dunyosida, ayniqsa, G‘arb turkologiyasida oltoy til oilasiga qarshi chiqilayotgani sababi haqida to‘xtalib, buning negizida nima yotishiga urg‘u berildi. Bundan tashqari, keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda aytilayotgan “Shumerlar turk bo‘lgan”, “Skif-saklar turkiy tilda so‘zlashgan”, “Avesto bizning tilda yozilgan” kabi ayrim o‘rinlarda ilmiy izlanishlarga ham kirib qolgan masalalar qisqacha ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga, ko‘pchilik oydinlarimiz tomonidan ko‘tarilgan, biroq teran izlanish olib borilmagani uchun chala qolib ketgan kushonlar, eftaliylarning tili bo‘yicha ham qisqacha so‘z yuritildi. Boshqa tomondan esa vengr tilining turkiy tillar o‘tmishi uchun nechog‘lik ahamiyatga egaligi, avar-bulg‘or tillarining keyingi taqdiri ham birmuncha yoritib o‘tildi. Eng qizig‘i, izlanishimizda “yozma manbalarda ilk bor uchragan turkiy yoki o‘zbekcha so‘z qaysilar?” degan savol-u so‘roqlarga javob topishga intildik. Holbuki, miloddan oldingi yuzyilliklarga tegishli xitoy va yunon yilnomalarida turkiy tilni esaladigan o‘nlab so‘zlar uchrab, bu borada yetarlicha so‘z yuritilmagani uchun elimiz shu choqqacha bundan xabarsiz bo‘lib keldi.

Endi o‘zbek tili bilan bog‘liq ayrim chigalliklarga to‘xtalib o‘tsak. Tilimiz har bir yurtdoshimiz uchun qanchalik ardoqli bo‘lmasin, uning o‘tmishini yoritish ko‘proq tilchi, adabiyotshunos olimlarimiz yelkasiga tushgan yumushdek ko‘rinadi. Bu ishga qo‘l urar ekanmiz, “Shu nomdagi yoki shunga yaqinroq biror kitob bugungacha bot-bot yozilgan, ularning salmog‘i va ko‘lami ham ancha keng bo‘lsa kerak?!” degan o‘ylar ko‘z oldingizdan o‘tadi, deb o‘ylaymiz. To‘g‘risini aytusak, bunday so‘roqlar boshlang‘ichda bizning ham ko‘nglimizdan o‘tgan, “Bu ishga qo‘l ursak qaytariq bo‘lmasmikan?” deb hadiksiragan edik. O‘zbek tili o‘tmishiga bag‘ishlangan kitoblar bilan tanishib chiqqan boshlagach, ayrimlarini aytmaganda, butunlay boshqacha bir holatga duch kelib, tilimiz o‘tmishiga bag‘ishlangan ishlarning ko‘lami 3–4 betdan oshmasligini ko‘rgach esa, “Nega bugungacha hech kim bu ishga qo‘l urmadi, axir bu birinchi galda tilchilarimizning yelkasidagi vazifa emasmidi?!” degan o‘ylar qurshovida qoldik. Keyin izlanib, surishtirib bilsak, tilchi va tarixchilarning bir-birini o‘zlariga yot, boshqa-boshqa tarmoq vakillari deb tushuna boshlaganliklari tilimiz o‘tmishini yotig‘i bilan tushuntiruvchi

O‘ZBEK TILI TARIXI QANCHALIK YORITILGAN?

biror asar yozilishiga birmuncha to‘siq bo‘libdi. Bundan tashqari, XX yuzyillik boshlaridan XXI yuzyillikning boshlarigacha qariyb yuz yilga cho‘zilgan – turkologiyaga qaratilgan “yovqarash” o‘zbek tili o‘tmishi bo‘yicha izlanishlar olib borishni cheklab qo‘yibdi. Achinarlisi, yurtimizdagi bunday yondashuv, bu boradagi izlanishlarga yaqin-yaqinlargacha o‘z ko‘lankasini tashlab kelmoqda.

Shu o‘rinda “bunday yondashuvlarning negizida nima yotadi, kimlar uning olovini qalaydi” degan so‘roqlarga duch kelishimizni ham aytib o‘tishimiz kerak. XX yuzyillikning 60–80-yillari oralig‘ida sovet bo‘yinturug‘i ostidagi qardosh ellar orasida o‘zbek tilshunoslari yo‘lchi yulduz bo‘lib, “Devoni lug‘atit turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”ni o‘z tillariga o‘g‘irib, o‘nlab arabcha-turkiycha so‘zliklar ustida ish olib borganlarida “o‘z og‘a”laridan qo‘rqishmaganining negizida nima yotgani-yu, ularning dovyurakligiga nimalar turtki bo‘lganini ochiqlash kerak bo‘ladi. Demak, har bir narsa istakka bog‘liq ekan, tilimiz o‘tmishining yetarlicha yoritilmasligi negizida faqat birovlarining qo‘li emas, o‘zimizning istaksizligimiz, “qo‘rqqanga qo‘sha ko‘rinar” yo‘sinida ish tutishimiz turishi aniq.

Kezi kelganda aytib o‘tish kerak, tilimiz, uning o‘tmishiga bo‘lgan bunday yondashuvlar haligacha yo‘qolmagan. Yaqin yillarda yurtimiz yetakchilarining Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universitetini ochganini barcha yaxshi biladi. Bunday ezgu ishni olqishlaymiz, bu bilim o‘chog‘ining mangu qolishiga tilakdoshmiz. Biroq bu ishga bosh-qosh bo‘lgan tilshunos izlanuvchilarimiz tomonidan ushbu bilim o‘chog‘i yo‘riqnomasiga kiritib qo‘yilgan ayrim o‘rinsizliklarga qo‘shilib bo‘lmasligini uqtirib o‘tish kerakka o‘xshaydi. Yo‘riqda yozilishicha, “O‘zbek tilining Avesto davri”, “O‘zbek tilining yuzaga kelishida sug‘diy tilining o‘rni” bor emish. Avesto eng eski eroniy tillardan birida yozilgani, unda o‘zbek tiliga tegishli birorta so‘z uchramasligini bilib turgan va yo‘riqnoma-ga shu qo‘shimchani kiritgan tilchilarimizni qanday tushunish kerak. Yo bo‘lmasa, ular o‘zbek tiliga sharqiy eroniy tillarning bir tarmog‘i bo‘lmish sug‘diy tilining hech qanday tegishli yeri yo‘qligi, tilimizda uchraydigan bunday so‘zlarning soni 100 taga yetmasligini bilisharmikan!? Bizningcha, bu yo‘riqnoma o‘sha kezlardagi – birinchi ma‘muriyat davridagi ayrim tilchi va tarixchilarimizning fanni siyosatga moslashtirishga uringanliklari, shu yo‘sinda fanni emas, rahbariyatning xohish-istagini yuqori qo‘yganliklarining hosilasi edi.

Tilimizning teran tomirlari ochiq-oydin ko‘rinib turgan O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarini o‘zbeklarga yot deb bilish, undan so‘z ochilganda “Bizning ildizimiz shu yerda, o‘troqchilik negizida yuzaga kelgan” deb hayqirish qachongacha va yana nimalargaarayaydi ekan! O‘zbek tilini quruq yurtimiz tuproqlari bilan chegaralash, uning tub ildizlaridan yuz o‘girish kimga kerak. Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydigan bugungi kunda bunday yondashuv yana qachongacha davom eta oladi! “Og‘alar”ga qulluq qilingan 80-yillarda “So‘ylasin Afrosiyob-u, so‘ylasin O‘rxun xati” deb ochiq-oydin yoza olgan shoir-u oqinlarimiz qayda-yu, erkimiz o‘z qo‘limizda bo‘lib turgan bugungi kunda ildizlarimizdan yuz o‘girib, teran tomirlarimizni chegaralovchilar qayda?

Ish shungacha yetib bordiki, bir siqim kishilar emas, yurtimizning to‘ridan o‘rin olgan oydinlarimiz bunday chegaralashga indamay bo‘ysunib, Mahmud Koshg‘ariy-u Yusuf Xos Hojibni “Bizniki emas, ular falon yerda tug‘ilgan, u yer bizdan shuncha chaqirim uzoqda” deyish bilan cheklandi. O‘tgan yuzyillikning 60–80-yillarida qanchalar ter to‘kishlar-u, ko‘z nuridan ayrilishlar evaziga qo‘lga kiritilgan o‘z ota-bobolarimizni ataylab qo‘ldan chiqarish shunchalar qulaymi! Qolaversa, shunday yondashuvchilarga Alisher Navoiy-

ning tug‘ilgan yeri qayer ekanini so‘raganingizda “U boshqa masala, panturkistlik qilma!” degan tahdidlarga duch kelganimizni ayt sak-da, ularning ism-sharifi keltirmay qo‘ya qolish bilan cheklandik.

Bugun har qaysi o‘zbekka, ayniqsa, tilshunos va bu tarmoqqa yaqin kishilarga “Eng eski o‘zbekcha so‘zlar qaysi, ulardan biror o‘rnak bera olasizmi, ular qachon va qanday yozma manbalarda uchraydi?” deb so‘rasangiz, barmoq bilan sanarli kishilargina bu borada o‘z qarashlarini bildirishiga duch kelasiz. Ilk bor bundan 2 ming yil oldin “Tangri”, “Qut”, “Yabg‘u”, “O‘rda” kabi Xitoy yilnomalarida uchragan so‘zlar barcha turkiy el-uluslarning, ayniqsa, o‘zbek tilining yozma manbalarda o‘rin olgan eng eski so‘zlari sanaladi. Milodning boshlarida esa xitoycha yilnomalari bilan birga yunon va lotin yozma manbalarda “Yoyiq”, “Idil” kabi atoqli otlar o‘laroq ko‘rina boshlagan turkiy so‘zlar keyinchalik – oradan 3–4 asr o‘tib sug‘diy va turkiy bitiklarda o‘rin ola boshlaydi. Ayniqsa, VII–VIII yuzyilliklarga tegishli O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarida 1500 ga yaqin turkiy so‘z uchrab, ularning 1300 ga yaqini bugungi o‘zbek tilida saqlanib qolgani ko‘ngilni quvontiradi. Turk xoqonligi tomonidan o‘rnatilgan 580-yillarga tegishli sug‘diycha Bug‘ut(Mo‘g‘uliston) bitiktoshida “xoqon”, “tegin”, “tarxon”, “tudun” va boshqa o‘nlab turkiy atamalar, turk xoqonlari tomonidan bostirilgan Choch(Toshkent) tangalarida esa “jabg‘u”, “xoqon”, “to‘n”(to‘ng‘ich), “tardu” singari unvonlar, Choch Teginlari(605–750) va Choch Tudunlari(640–750) sulolalariga tegishli tangalardagi “el-tegin”, “tegin”, “tudun”, “eltabar” unvonlari sug‘diy tili yozuvda o‘z ko‘rinishini topgan turkiy so‘zlar sirasini kengaytiradi. Shuningdek, VIII yuzyillikning boshlariga tegishli Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlarida uchraydigan “kul-erkin”, “inanchu”, “qurchi”, “o‘t-tegin”, “tarxon” unvonlari ham eski turkcha so‘zlar o‘laroq bilinadi.

VII–VIII yuzyilliklarda esa ular qatoriga Vizantiya (yunon), arman, suryoniy, pahlaviy(o‘rta fors), hind, tibet tillaridagi yozma yodgorliklarda o‘rin olgan o‘nlab turkiy so‘zlar qo‘shiladi. Ulardagi eski turklar bilan bog‘liq “yug‘”, “Tangri-xon”, “Qora-Idil” kabi turkiycha so‘z va atamalarni bunga o‘rnak ko‘rsatsa bo‘ladi. Yillar o‘tib yozma manbalarda o‘rin olgan turkiy so‘zlarning ko‘lami yanada kengayadi. XI asrda yaratilgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida 8000 ga yaqin so‘z uchrab, ularning ko‘pchiligi tub turkiy so‘zlar ekanligi bilan ajralib turadi. Bunday asarlar sirasiga Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”ini ham kiritamiz.

Endi, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar ko‘lami va ular tarqalgan o‘lkalarga birmuncha to‘xtalib o‘tsak. O‘zbek tili bo‘yicha yaratilgan ko‘plab ilmiy izlanishlarda bu til-da so‘zlashuvchilar O‘zbekiston va unga qo‘shni o‘lkalar: Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘onistonda yashashlari aytilib, ularning qanday tarmoqlarga bo‘linishiga qisqacha to‘xtalib o‘tilgani ko‘zga tashlanadi. Biroq ayrimlaridan tashqari, Afg‘oniston va Turkmanistonda yashovchi o‘zbeklarning qaysi tarmoqqa – qarluq, o‘g‘uz yo bo‘lmasa, qipchoq shevalaridan qay birida so‘zlashishlari bo‘yicha yetarlicha so‘z yuritilmaydi. Turkmanistonning Toshovuz va Chorjo‘y shaharlari tegrallarida o‘g‘uz va qipchoq, bu o‘lkaning Amudaryo o‘rta qirg‘oqlari o‘zbek qishloqlarida esa qarluq va qipchoq tarmoqlarida so‘zlashuvchi o‘zbeklar borligini onda-sonda eshitib yoki o‘qib qolamiz.

Shu o‘rinda Janubiy Qozog‘istondagi ko‘pchilik o‘zbeklarning qarluq yoki qarluq-o‘g‘uz aralash shevalarda so‘zlashishi, Turkiston shahri va tegrasida o‘g‘uzcha belgilar, Chimkent va Sayramda qarluqcha belgilar yetakchi ekanini, Qoratov(eski turkcha va o‘zbekcha Qorachuq) tog‘ining narigi yog‘ida – terskay tomonida Suzoq, Cho‘loq qo‘rg‘onda esa borgan sari qo‘llanil-



may, “qozoqchalashib” borayotgan qipchoq o‘zbek-chasi borligini aytib o‘tish kerak. Qirg‘iziston o‘zbeklari esa qipchoqcha so‘zlashuvchi ayrim oz sonli qishloqlarni aytmaganda, O‘sh, O‘zgan, Jalolobod va tegralarida qarluqcha shevada so‘zlashuvchi o‘zbeklar ko‘pchilikdir. Tojikistonda esa Xo‘jand, Dushanbe kabi yirik shaharlar va ularning tegra qishloqlarida qarluq, janubdagi Ko‘lob va tevaraklarida qipchoq tilli o‘zbeklar talay. Qirg‘iziston va Tojikistonda o‘g‘uz tilli o‘zbeklar uchramaydi.

Shunga o‘xshash Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklarining ko‘pchiligi, ayniqsa, Mozori Sharif, Shibirg‘on, Qunduz, Tahor kabi o‘lka va shaharlarda qarluq, ularning tegra qishloqlarida qipchoq, Andxo‘y tumani tegrasida birmuncha o‘g‘uz tilli o‘zbeklar yashashini deyarli ko‘pchilik tilshunoslarimiz bilishmaydi. Buning yana bir o‘rnagi Xuroson(Shimoli-sharqiy Eron) o‘lkasining o‘nlab shahar va qishloqlarida so‘zlashiladigan Xuroson turkchasi bilan o‘zbek o‘g‘uzchasida ko‘rinadi. “O‘zbek tilining o‘tmishdagi bir tarmog‘i” deya oladigan Xuroson turkchasi deyarli yarim yuzyillikdan – XX yuzyillikning 70-yillaridan beri o‘rganib kelinayotganiga qaramay, o‘zbek tilshunosligida bu bo‘yicha birorta ish qilinmaganligi achinarlidir. Holbuki, bu tilni sinchiklab tekshirish orqali temuriylar chog‘ida Xurosonda, ayniqsa, Hirot va uning tegrasida so‘zlashilgan “chig‘atoy turkchasi”, boshqacha aytganda “eski o‘zbekcha”ning ko‘plab ochilmagan qirralarini aniqlasa bo‘ladi.

Bugungi kun tilshunosligida o‘zbek adabiy tilini uyg‘ur tili bilan birga turkiy tillarning “qarluq lahjasi”ga kiritish keng yoyilgan. Biroq bu yondashuv shartli bo‘lib, biror yozma manbada “qarluq lahjasi” yoki “qarluq tili” atamasi uchramaydi. Holbuki, bugungi tilshunoslikda keng tarqalgan atamalar – turkiy tillarning “o‘g‘uz lahjasi” uchun arab tilli yozma manbalarda ko‘pincha “turkmon tili”, “turkmoncha”, ayrim o‘rinlarda “turkiy o‘g‘uz lahjasi” atamaları, “qipchoq lahjasi” uchun esa “qipchoq tili”, “qipchoqcha”, “qipchoq turkchasi” atamaları qo‘llanilgani ko‘zga tashlanadi. O‘z vaqtida turkiy tillarning bir necha lahjasi borligiga urg‘u bergan Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘otit turk” asarida eng yirik turkiy lahjalar deb “o‘g‘uzcha” va “qipchoqcha”ni keltirar ekan, ikkalasidan ham ajralib turuvchi “xoqoniya turkchasi”ga bot-bot to‘xtalib o‘tadi. Bir turkum tilshunoslar “xoqoniya turkchasi”ga Qoraxoniylar davlatida keng qo‘llanilgan turkiy adabiy til deb qarab, ko‘proq uyg‘ur va o‘zbek tillarini uning bugungi izdoshlari o‘laroq bilishadi.

Bugungi kunda turkiy tilda so‘zlashuvchi millat va elatlarning salmog‘i ikki yuz milliondan oshgan bo‘lib, ular bir-biriga yaqin va uzoq 30 dan ortiq tilda so‘zlashadi. O‘z o‘rnida ular turkiy tillarning o‘g‘uz, qarluq va qipchoq kabi 3 ta yirik va nisbatan oz sonli xalach, chuvash, yoqut(saxa), Janubiy Sibir turkiy lahjalari-ga bo‘linadi. Ushbu lahjalarning deyarli har biri yoki ko‘pchiligi qadimgi turk tili – “O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari tili”ning, ya‘ni ko‘pchilik tilshunoslar ta‘biri bilan aytganda, “Umumturkiy til” yoki “Umumturkcha” (*ing.* “Common Turkic”, *rus.* “Общeturкский язык”)-ning to‘g‘ridan to‘g‘ri izdoshlari bo‘lsa, ayrimlari esa bu tillardan butunlay ajralib turadi. Bugungi chuvash va o‘rta asrlardagi Volga bulg‘orlari, ilk o‘rta asrlardagi o‘g‘ur-bulg‘or tillari “Umumturkiy til”ga kiritilmasdan, ular uchun tilshunoslikda ko‘pincha ilk turkchaning, ya‘ni “Boshlang‘ich(proto-turk)chaning izdoshlari” yoki “xun tilining bir tarmog‘i” kabi atamalar qo‘llaniladi. Shu o‘rinda “Ilk turkcha”, “proto-turk” yoki “xun tili” atamaları negizida aynan qanday tushunchalar yotadi?”, “Oltoyshunoslar va turkologlar qanday dalillarga tayanib bunday to‘xtamlarga kelishgan?” kabi savollar tug‘iladi.

Qisqasi, o‘zbek eli o‘zini turli sohalarida – demografik o‘shish, sport(boks, futbol, kurash), ilm-fan(ayrim tarmoqlari)da dunyoga birmuncha tanitib ulgurdi. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi aholining yil sayin ko‘payib borayotganini ham shu kabi yutuqlar sirasiga kiritib bo‘ladi. Tilimizni asrab-avaylashga intilar ekanmiz, uning o‘tmishini yoritishni ham buyuk burch deb bilishimiz, shunday yondashgan holda ko‘plab izlanishlar olib borishimiz kerak bo‘ladi.

G‘aybulla BOBOYOR,
tarix fanlari doktori,
professor,

O‘zR FA Milliy arxeologiya markazi

Tavsiya



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, o‘zbek tili davlat tili maqomiga ega va mamlakatdagi barcha fuqarolar uchun rasmiy muloqot vositasi hisoblanadi. Shu sabab nafaqat o‘zbek millatiga mansub kishilar, balki boshqa millat vakillari, jumladan, rusiyzabon o‘quvchilar ham o‘zbek tilini o‘rganishga ehtiyoj sezadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ko‘plab rusiyzabon aholi istiqomat qiladi. Ularning aksariyati maktab va oliy ta‘lim muassasalarida o‘zbek tilini o‘rganishga harakat qilmoqda. Biroq o‘zbek tili rus tilidan fonetik, grammatik va sintaktik jihatdan sezilarli farq qilgani sababli ushbu o‘quvchilar uni o‘zlashtirishda ba‘zi qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun rusiyzabon o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘qitish maxsus metodik yondashuvlarni talab qiladi.

Hozirgi zamon ta‘lim tizimida til o‘qitishning turli xil usullari mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos samaradorlikka ega. An‘anaviy grammatik-tarjimaviy uslubdan tortib, kommunikativ va interaktiv

usul bo‘lib, o‘quvchilar uchun juda samarali hisoblanadi. Bunda:

- grammatika qoidalari batafsil tushuntiriladi;
- rus tilidan o‘zbek tiliga va aksincha tarjima mashqlari bajariladi;
- matn ustida ishlash, jumlar tuzish va tahlil qilish kabi mashqlar olib boriladi.

Biroq bu metod kommunikativ yondashuv bilan uyg‘unlashtirilmasa, o‘quvchilarda jonli nutq ko‘nikmasi sust rivojlanishi mumkin.

3. Audiolingvistik metod. Bu metod rusiyzabon o‘quvchilarga eshitish va talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun juda foydali. Unda:

Rusiyzabon o‘quvchilarga o‘zbek tilini qanday o‘qitamiz?

yondashuvlargacha bo‘lgan usullar o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, til o‘rganish jarayonini jonli muloqotga yo‘naltirish, eshitish va ko‘rish orqali o‘rgatish hamda real hayotiy vaziyatlar asosida mashg‘ulotlar tashkil qilish samarali natijalar beradi.

Rusiyzabon o‘quvchilar uchun o‘zbek tilini o‘qitish maxsus metodikalarga asoslangan holda olib borilishi lozim.

Rus tiliga asoslangan o‘quvchilar o‘zbek tilini o‘rganishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishadi:

1. Fonetik farqlar. Rus va o‘zbek tillari fonetikasi tubdan farq qiladi. Masalan, rus tilida “h”, “q”, “g” kabi tovushlar yo‘q.

2. Grammatik o‘ziga xosliklar – rus tili yevropa tillariga yaqin bo‘lib, o‘zbek tili aglutinativ til ekanligi sababli gap tuzilishi va grammatik shakllanishi o‘ziga xosdir.

3. Leksik muammolar – o‘zbek tilidagi so‘z boyligi va rus tilidan farqli sinonimiya tizimi rusiyzabon o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

4. Orfografik va sintaktik farqlar – rus tilida so‘z tartibi qat‘iy emas, o‘zbek tilida esa so‘z tartibiga alohida e‘tibor beriladi.

5. Shakllantirish bosqichlari – rusiyzabon o‘quvchilar ko‘pincha o‘zbek tilida gap tuzishda ruscha fikrlash tizimidan foydalanadi, bu esa grammatik xatolarga sabab bo‘ladi.

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib, o‘zbek tilini rusiyzabon o‘quvchilarga samarali o‘rgatish uchun zamonaviy metodlar quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

1. Kommunikativ metod. Bu metodda asosiy maqsad – tilni jonli muloqot vositasi sifatida o‘rgatish. Mazkur metod orqali o‘quvchilar:

- tabiiy muloqot muhitida o‘zbekcha gapirishga o‘rganadi;
- haqiqiy hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni bajaradi;
- kundalik hayotda qo‘llaniladigan so‘z va iboralarni tezroq o‘zlashtiradi.

O‘qituvchi bu metodni tatbiq qilish uchun:

- darslarda iloji boricha ko‘proq interaktiv mashg‘ulotlardan foydalanishi kerak;
- o‘quvchilar bilan erkin muloqot qilish muhitini yaratishi zarur;
- o‘yinlar va rolli o‘yinlar yordamida o‘rganilgan materialni mustahkamlashi lozim.

2. Grammatik-tarjimaviy metod. Bu an‘anaviy

- audio va video materiallardan keng foydalaniladi;
- o‘quvchilar dialog va monologlarni eshitib, ularni takrorlaydi;
- diktant va eshitib tushunish mashqlari qo‘llaniladi.

4. Vizual metod. Tasvir va ko‘rgazmali vositalar yordamida o‘qitish tilni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Ushbu metodda:

- surat, rasm va diagrammalar qo‘llaniladi;
- videorolik va infografikalar asosida dars o‘tiladi;
- jadval va grafiklar orqali grammatik tushunchalar izohlanadi.

5. O‘yinga asoslangan metod. Bolalar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun, ayniqsa, foydali metod bo‘lib, bunda:

- til o‘rganish jarayoni qiziqarli shaklda tashkil etiladi;
- so‘zlashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun rolli o‘yinlar o‘tkaziladi;
- qiziqarli jumboqlar, rebuslar va interaktiv testlar yordamida darslar o‘tiladi.

Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirishi anchayin osonlashadi. Bundan tashqari, rusiyzabon o‘quvchilar uchun maxsus darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va mobil ilovalardan foydalanish samarali bo‘ladi. Masalan:

- **o‘zbek-rus lug‘atlari;**
- **o‘zbek tili bo‘yicha interaktiv veb-saytlar;**
- **o‘zbek tilidagi kinofilmlar va audio materiallar.**

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va elektron resurslardan foydalanish ham til o‘rganish jarayonini osonlashtiradi. Masalan, o‘zbek tiliga oid mobil ilova, video darslik, interaktiv veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi til o‘rganish guruhlari o‘quvchilarga mustaqil shug‘ullanish imkoniyatini beradi.

Madaniy komponent ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun o‘zbek madaniyati, urf-odatlar va tarixiga oid bilimlarni berish nafaqat ularning lug‘at boyligini oshiradi, balki tilga bo‘lgan hurmat va qiziqishini ham kuchaytiradi. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, she‘riyatidan namunalar, xalq maqollari va iboralari bilan tanishtirish o‘quvchilarning tilni yanada chuqurroq tushunishlariga yordam beradi.

Feruza UBAYDULLAYEVA,
Yakkasaroy tumanidagi
160-IDUMning o‘zbek tili o‘qituvchisi,
“Xalq ta‘limi a‘lochisi”

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI KAFEDRALARIDA MAVJUD QUYIDAGI BO'SH(VAKANT) O'RINLARGA TANLOV E'LON QILADI:

“Texnologiya va professional ta’lim metodikasi” kafedrası mudiri(1 nafar) lavozimiga.

Malaka talablari:

- nomzod oliy ta’lim muassalaridagi boshqaruv lavozimlarida faoliyat olib borish uchun zarur bo’lgan kasbiy va tashkilotchilik qobiliyatlariga, ta’lim sohasida rahbarlik ish tajribasi va stajiga, faoliyat turi va vakolatlari doirasida tegishli bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishi;
- namunaviy shaxsiy fazilatlar, xushmuomalalik, yuqori intellekt,

yetakchilik, ijodkorlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik qobiliyatlarga ega bo’lishi, o’z ishiga mas’uliyat bilan yondashishi, mustaqil qaror qabul qilish va ish tutish, qat’iy harakat qilish, muassasa strategik masadlariga erishishni ta’minlashi talab etiladi;

- kafedra mudiri lavozimiga talabgorlar OTMda bakalavr va magistrliklaridan biri bo’yicha fan doktori yoki nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo’li-

shi hamda yo’nalishi bo’yicha kamida 5 yillik ish stajiga ega bo’lishi zarur.

Tanlovda qatnashishni xohlovchilar e’lon chop etilgan kundan boshlab 30 kun ichida quyidagi manzilga ariza bilan murojaat qilishlari mumkin.

**Manzil: Toshkent shahri,
Chilonzor tumani, Bunyodkor
ko’chasi, 27-uy. Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika
universitetining xodimlar bo’limi.
Murojaat uchun telefon:
(71) 276-77-14.**

Maxmudov Azamjon Muxtarovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha “Zamonaviy futbolda integral tayyorgarlikni kompleks nazorat qilish uslubi” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 1-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Xolboyeva Gulxayo Xolboyevnaning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi hamda 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosliklari bo’yicha “Jismoniy tarbiya mutaxassislarini kasbiy-karyera faoliyatiga tayyorlash tizimini modernizatsiyalash” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 1-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Fazliyev Jamoliddin Sharofiddinovichning 06.01.02 – Melioratsiya va sug’orma dehqonchilik ixtisosligi bo’yicha “Bog’larni tomchilatib sug’orishning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish(Buxoro viloyati misolida)” mavzusidagi (texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.41/30.04.2021.T.131.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 3-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.

Tel/faks: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

Dolidudko Aleksandr Ivanovichning 06.01.02 – Melioratsiya va sug’orma dehqonchilik ixtisosligi bo’yicha “Sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda kollektordan foydalanish ishonchligini oshirish usullari(Sirdaryo viloyati misolida)” mavzusidagi(texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.41/30.04.2021.T.131.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 3-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.

Tel/faks: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

Yaqubova Xurshida Uraqovnaning 08.00.04 – Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti hamda 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosliklari bo’yicha “Dehqon xo’jaliklarini kreditlash tizimini takomillashtirish” mavzusidagi(iqtisodiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Xalqaro qishloq xo’jaligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/15.12.2022.I.155.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 26-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko’chasi, 2-uy.

Tel/faks: (88) 801-36-00; e-mail: scientific_council@iau.uz

Normirova Nargiza Nazarovnaing 14.00.04 – Otorinolarinologiya ixtisosligi bo’yicha “Vestibulyar buzilishlarda reabilitatsiya va profilaktikasida posturografiyaning qo’llashni asoslash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/05.06.2020.Tib.102.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 22-aprel kuni soat 12:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100140, Samarqand shahri, Amir Temur ko’chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Sultashova Oralxan Genjebayevnaning 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika ixtisosligi bo’yicha “Amudaryo quyi oqimi degradatsiyaga uchragan tuproqlar unumdorligiga iqlim o’zgarishi ta’sirini baholash” mavzusidagi(qishloq xo’jaligi fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 6-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko’chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;

veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Egamov Xasan Xudoyberdiyevichning 14.00.33 – Jamiyat salomatligi. Sog’liqni saqlashda menejment hamda 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosliklari bo’yicha “Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda teri leyshmaniozining ijtimoiy gigiyenik jihatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog’ishamol ko’chasi, 223-uy.

Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Jo’rayeva Turg’unoy Umarjonovnaning 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(nofilologik yo’nalishlar misolida) ixtisosligi bo’yicha “O’zbek tilini o’qitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko’chasi, 316-uy.

Tel/faks: (69) 211-11-69;

veb-sayt: www.namspi.uz; namdpi@exat.uz; e-mail: info@namspi.uz

Nurmatov Doston Urolovichning 02.00.03 – Organik kimyo ixtisosligi bo’yicha “Nikotin va izonikotin kislotaning aromatik aminlar bilan reaksiyalarini o’rganish” mavzusidagi(kimyo fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.09.2020.K.82.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 3-may kuni soat 15:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko’chasi, 104-uy.

Tel/faks: (70) 716-68-05, 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz

Xudoyberdiyeva Aziza Abdumajitovnaning 02.00.03 – Organik kimyo ixtisosligi bo’yicha “Karbonil birikmalar va gomoveratrilamin ishtirokidagi uch komponentli reaksiyalar asosida yenamionlar sintezi” mavzusidagi(kimyo fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.09.2020.K.82.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko’chasi, 104-uy.

Tel/faks: (70) 716-68-05, 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz

Tursunmuratov Obid Xamzayevichning 02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar ixtisosligi bo’yicha “Vermikulit asosida olingan ionitning fizik-kimyoviy xossalari” mavzusidagi(kimyo fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.09.2020.K.82.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-aprel kuni soat 16:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko’chasi, 104-uy.

Tel/faks: (70) 716-68-05, 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz



Axmedov Farrux Shavkatovichning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi hamda 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosliklari bo’yicha “Kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 2-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Abdullayeva Xuriyatxon Zafarbekovnaning 06.01.09 – O’simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo’yicha “G’o’zaning asosiy kemiruvchi zararkunandalarini bashoratlash, zararlanish darajasini nazorat qilish hamda boshqarish” mavzusidagi (qishloq xo’jaligi fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug’chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 29-aprel kuni soat 9:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, “Botanika” MFY, O’zPITI ko’chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Kilichev Anvar Akramovichning 14.00.12 – Tibbiy reabilitologiya hamda 14.00.33 – Jamiyat salomatligi. Sog’liqni saqlashda menejment ixtisosligi bo’yicha “Aorta – koronar shuntlash amaliyotidan so’ng bemorlarga multifaktorli tahlil orqali tibbiy yordam ko’rsatishni va reabilitatsiyani tashkil etishni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/31.10.2024.Tib.102.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 25-aprel kuni soat 12:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100140, Samarqand shahri, Amir Temur ko’chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-07-66, 233-30-34; e-mail: samgmi@mail.ru

Obidjonov Jahongir Toxir o’g’lining 05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo’yicha “Manolit qurilish uchun fibrobetonlarning samarador tarkiblarini ishlab chiqish” mavzusidagi (texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 6-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko’chasi, 9-uy.

Tel/faks: (55) 508-02-95; e-mail: devon@taqu.edu.uz

Rajabov Voxid Bafoyevichning 14.00.27 – Xirurgiya ixtisosligi bo’yicha “Diffuz peritonit bilan og’rigan bemorlarda davolash usulini takomillashtirish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/27.09.2024.Tib.93.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 6-may kuni soat 12:30 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G’ijduvon ko’chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Shukurov Jasur Xoshimovichning 02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo’yicha “Mahalliy xomashyolar asosida sintez-gazdan dimetilefir olish jarayonini modellashtirish hamda energiya va resurs tejamkor texnologiyasini yaratish” mavzusidagi(texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 22-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, G’alaba shohko’chasi, 76-“v” uy.

Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz

Axmedov Joxon Kuldashevichning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo’yicha “Kurash sporti orqali o’quvchilarda milliy iftixor tuyg’usini shakllantirish omillari” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 2-may kuni soat 16:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Karimov Ne’mat Xolyigitovichning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo’yicha “O’quv dala amaliyotlarida ekstremal va sport turizmidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari(oliy ta’lim muassasalarining 1-bosqich talabalari misolida)” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 25-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Ernayeva Gulasal Hazratovnaning 19.00.04 – Tibbiy psixologiya ixtisosligi bo’yicha “Taekvondochilarda musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida kuzatiladigan psixoemotional o’zgarishlar va ularga tibbiy-psixologik yordam tamoyillarini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.10/30.12.2019.Tib.69.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 24-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko’chasi, 6-uy.

Tel/faks: (71) 241-52-45, 241-30-93; e-mail: medsport@gmail.com

Ochilov Behruz Odilovichning 03.00.09 – Umumiy genetika ixtisosligi bo’yicha “Bug’doyning bekkross populyatsiyalarida sariq zang kasalligiga chidamliligini mikrosatellit DNK markerlari yordamida genotiplash” mavzusidagi(biologiya fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o’simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-aprel kuni soat 16:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz mahallasi.

Tel/faks: (71) 264-22-23, 264-23-90; e-mail: igebr@academy.uz

Murodova Sojida Maqsadboy qizining 03.00.09 – Umumiy genetika ixtisosligi bo’yicha “No’xatning(Cicer arietinum L.) kolleksiya namunalarini SSR DNK markerlari bilan fuzariozga chidamli bo’lgan lokuslarini assotsiativ kartalashtirish” mavzusidagi(biologiya fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o’simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz mahallasi.

Tel/faks: (71) 264-22-23, 264-23-90; e-mail: igebr@academy.uz

Tajiyev Javlon Karimboyevichning 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(texnologik ta’lim) ixtisosligi bo’yicha “Talabalarning xalq hunarmandchiligi, amaliy san’ati va badiiy loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish(texnologik ta’lim yo’nalishi misolida)” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 6-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko’chasi, raqamsiz uy.

Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Xaydarova Malika Djamshitovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo’yicha “Boshlang’ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish mexanizmlari” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 7-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko’chasi, raqamsiz uy.

Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Baxronova Adiba Ismoilovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo’yicha “Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash mexanizmi” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashnng 2025-yil 7-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko’chasi, raqamsiz uy.

Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Sodiqova Ozodaxon Xayotjon qizining 06.01.05 – Seleksiya va urug’chilik ixtisosligi bo’yicha “Turli genealogiyaga ega g’o’za duragaylari asosida qimmatli seleksion ashyolarni yaratish” mavzusidagi(qishloq xo’jaligi fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug’chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/08.05.2024.Qx.42.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111218, Qibray tumani, Salor shaharchasi, Universitet ko’chasi, 1-uy.

Tel/faks: (78) 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Nasrullayev Yusuf Zokirovichning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo’yicha “Binoga integratsiya qilingan fotoelektrik modullarning issiqlik-elektrik parametrlarini tadqiq qilish” mavzusidagi (texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 26-aprel kuni soat 15:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko’chasi, 225-uy.

Tel/faks: (75) 224-19-49; e-mail: admin@kstu.uz

Ochilov Oybek Abdirasulovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi hamda 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosliklari bo’yicha “Sportchilarni tayyorlash tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarini tashkil etish uslubiyati” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 25-aprel kuni soat 16:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Bekchanov Zokirjon Botirovichning 06.01.09 – O’simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo’yicha “Boshqqli don ekinlarini qandalalar turkumiga kiruvchi zararli hasvadan himoya qilish choralari” mavzusidagi(qishloq xo’jaligi fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug’chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 29-aprel kuni soat 13:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, “Botanika” MFY, O’zPITI ko’chasi.

Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru



Taqriz

Zamonaviy va kreativ darslik

Zamonaviy o'zbek tilshunosligining rivojlanish jarayonida talabalarga fundamental bilim berish, nazariy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Bugun fan va texnika jadal sur'atlarda rivojlanayotgan, yangi-yangi lingvistik paradigmalarni shakllanayotgan, tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi kuchayayotgan davrda yoshlarga puxta bilim berish, ularning tilshunoslik sohasidagi professional kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv jarayoni yo'lga qo'yilgan. Bu, o'z navbatida, yangi avlod o'quv adabiyotlarining yaratilishini taqozo etadi. Zamonaviy darsliklar nafaqat nazariy bilimlar manbai, balki talabalarining amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Tilshunoslikning zabardast olimi B.Mengliyev, G.Ergasheva va Sh.Hamroyeva hammualifligida yaratilgan "Tilshunoslik asoslari" darsligi yuqoridagi talablarga to'la javob beradi. Uni o'qirganman, beixtiyor o'zbek tilshunosligida yangi sahifa ochildi, degan fikrga keldim. Chunki zamonaviy lingvistik bilimlarni talabalarga mukammal yetkazish, tilshunoslik fanining qadimiy ildizlari va bugungi rivojlanish tendensiyalarini yaxlit holda taqdim etish – bugungi kun talablaridan. Darslikning yaratilishi ana shu dolzarb ehtiyojni qondirishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Darslik o'zining chuqur mazmuni, innovatsion yondashuvi, interparadigmal tabiati hamda pedagogik qimmat bilan ahamiyatli.

Darslikning tuzilishi va metodologik asoslari. Kitob o'zining yangicha tuzilishi bilan an'anaviy o'quv adabiyotlaridan tubdan farq qiladi. U to'rt faslga ajratilgan, har bir fasl tegishli boblar bo'lingan. Jami 8 bo'limdan tashkil topgan, har bir bo'lim mukammal ichki tuzilishga ega bo'lib, quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi: 1. Kirish. 2. Tayanch tushunchalar. 3. O'zlashtiriladigan tushunchalar. 4. Asosiy qism (mavzu qamroviga qarab bir necha bo'limlar). 5. O'quv topshiriqlari: 5.1. Savol va vazifalar (A, B va C darajadagi savollar, har bir daraja o'z ichida 4 tadan savol va topshiriq); 5.2. Test (A, B va C darajadagi testlar, har bir darajada 2 tadan test). 6. Glossariy. 7. Tavsiya etiladigan adabiyotlar. 8. Xulosa.

Bunday mukammal strukturaga ega bo'lgan darslik talabalarining mustaqil ishlashi, nazariy bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishi va amaliyotda qo'llay olishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Interparadigmal xususiyat va konseptual yangilik. "Tilshunoslik asoslari" darsligining asosiy innovatsiyasidan biri – uning interparadigmal

xarakterga egaligi. Darslikning epistemologik qimmat shundaki, unda tilshunoslikning struktur, funksional, kognitiv, antroposentrik kabi zamonaviy yondashuvlari sintezlashtirilgan. Bu sintez tilni ko'p qirrali hodisa sifatida tushunish va o'rganish imkonini beradi. Kitobning metodologik originalligini uning interparadigmal xarakterida ko'rish mumkin. Unda tilshunoslikning turli nazariy konsepsiya va metodologik platformalari integratsiyalashgan holda taqdim etilgan. Bu esa talabalarda tilshunoslik fani haqida yaxlit ilmiy tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Darslikning fundamental innovatsiyasi shundaki, unda tilshunoslikning barcha nazariy-metodologik masalalari zamonaviy lingvistik paradigmal doirasida yoritilgan. Bu esa tilshunoslik fanining eng so'nggi yutuqlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish imkonini beradi.

Til va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi. Darslikda zamonaviy lingvistikaning eng dolzarb yo'nalishlari – sun'iy intellekt, kompyuter lingvistikasi va mashina tarjimai kabi masalalar ham qamrab olingan, bu uning zamonaviy til tadqiqotlari darajasiga mosligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, raqamli lingvistika, korpus tilshunosligi, kompyuter lingvistikasi, tilni avtomatik qayta ishlash(NLP – natural language processing) kabi sohalar bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlar berilgan. Bu bo'limda tilni kompyuter vositasida tahlil qilish usullari; mashina tarjimai tamoyillari va algoritmlari; tilni avtomatik qayta ishlashning asosiy texnologiyalari; lingvistik ma'lumotlar bazalarini yaratish tamoyillari; til korpuslarining tuzilishi va ulardan foydalanish usullari; nutqni tanish va sintez qilish texnologiyalari; matnlarni avtomatik tahlil qilish metodlari; sun'iy intellekt tizimlarida tildan foydalanish kabi masalalar zamonaviy lingvistik bilimlarga asoslangan holda yoritilgan.

Darslikning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Darslikning eng ahamiyatli jihatlardan biri uning pedagogik-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq. Darslikda tilshunoslikning eng murakkab nazariy masalalari, muhim tushuncha va kategoriyalari ham hayotiy misollar orqali sodda va tushunarli tilda izohlangan. Materiallar 1-kurs talabalarining bilim darajasiga mos, tushunarli



va qiziqarli tarzda taqdim etilgan. Bu esa talabalarga tilshunoslikdek murakkab fanni oson o'zlashtirish imkonini beradi, qolaversa, ularning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Darslikda o'quv materialini mustahkamlash uchun innovatsion usullar qo'llangan. Har bir mavzu bo'yicha berilgan darajali savol va topshiriqlar talabalarining olgan bilimni baholash, mustaqil ishlashi va bilimlarini tekshirib borish uchun imkoniyat yaratadi.

Darslikning ilmiy-amaliy ahamiyati. Darslikning ilmiy ahamiyati shundaki, unda tilshunoslikning fundamental masalalari zamonaviy ilmiy paradigmal doirasida qayta ko'rib chiqilgan, fanning turli yo'nalishlari orasidagi bog'liqliklar aniqlangan, tilni o'rganishning tizimli modeli taqdim etilgan. Amaliy ahamiyati esa tilshunoslik metodlarini amaliyotda qo'llash, tilni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, tilshunoslik tadqiqotlarini olib borish metodikasini o'zlashtirishga ko'maklashishdan iborat. Darslik nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy tilshunoslik masalalarini ham qamrab olgani uning qo'llanilish sohasini kengaytiradi.

Xulosa. "Tilshunoslik asoslari" darsligi o'zining konseptual yangiligi, metodologik mukammalligi va didaktik samaradorligi bilan o'zbek tilshunosligida alohida o'rin egallashi, shubhasiz. U nafaqat darslik, balki fundamental ilmiy-tadqiqot namunasi sifatida ham yuqori baholanishi mumkin. Bunday mukammal darslik o'zbek tilshunosligida ilk bor yaratildi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Darslik – zamonaviy talablarga to'liq javob beradigan, nazariy va amaliy ahamiyatga ega fundamental asar. U nafaqat talabalar, balki tilshunoslar uchun ham qimmatli ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Darslik filologiya ta'limida muhim voqea, tilshunoslik rivojiga munosib hissa qo'shadi deb ishonch bilan aytish mumkin. Darslikning oliy ta'lim muassasalarida keng qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Shahnoza G'ULOMOVA,
filologiya fanlari doktori(DSc)

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-5932. Tiraji 6917

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (71) 212-01-50



"Ma'rifat"dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mual-
lifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

Ⓣ – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.